

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**5141600-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi  
4-kurs 401-guruh bitiruvchisi**

**ABDURASHIDOVA MUNOJAT ABDUMAJID QIZINING**  
*Bakalavr darajasini olish uchun yozgan*

**BITIRUV**

**MALAKAVIY ISHI**

**MAVZU: 2-SINF ODOBNOVA DARSLARIDA "MEHMON OTANGDAY  
ULUG'" BO'LIMINI O'RGANISH USLUBLARI**

**Ilmiy rahbar:**

**M.Rahimova**

Namangan – 2014 yil

## **2-SINF ODOBNOVA DARSALARIDA “MEHMON OTANGDAY ULUG” BO’LIMINI O’RGANISH USLUBLARI**

### **REJA:**

#### **Kirish**

#### **I bob. Boshlang’ich sinflarda odobnoma darslarini tashkil etishning pedagogik-psixologik asoslari:**

- 1.1. O’zbek xalqining mehmon kutish odobiga oid o’ziga xos xususiyatlari.
- 1.2. Odobnoma darslariga qo’yilgan DTS talablari
- 1.3. Odobnoma darslarida qo’llanadigan yangi pedagogik texnologiyalar tavsifi.

#### **II bob. 2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug” bo’limini o’rganish:**

- 2.1. 2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug” bo’limini o’rganish uslublari;
- 2.2. 2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug” bo’limini o’rganishda noan’anaviy dars usullaridan foydalanish;

#### **2.3. Tajriba – sinov ishlari.**

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

## **KIRISH**

Biz bugun tarixiy davrda - xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyshta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqorolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orzuqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Ana shu haqiqatni xalqimiz har tomonlama to'g'ri tushunib, tanlagan taraqqiyot yo'limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo'llab quvvatlayotgani oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

Davlatimiz tomonidan chiqarilgan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Davlat ta'lim standartlari" mamlakatda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga berilayotgan e'tiborning yorqin ifodasidir. Prezidentimiz I.A.Karimov "Farzandlarimiz bizdan ko'ra aqlli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari kerak" degan fikrni aytar ekan, O'zbekistonning kelajagi bo'lmish yoshlarni tarbiyalash, ularni komil inson qilib voyaga yetkazish Davlatimiz oldinga surayotgan ilg'or g'oyalardan biri ekanligiga amin bo'lasiz.

Davlatimiz tomonidan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. "Davlat ta'lim standartlari" joriy etildi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va o'rta umumta'lim maktablari kapital tamirdan chiqarilib, o'quv-laboratoriya jihozlari va zamonaviy asbob-uskunalar, kompyuterlar bilan ta'minlandi.<sup>1</sup>

"Aql zakovatli yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". "Sharq" nashriyoti. Toshkent. 1999 y. 24-b.

topadi,<sup>2</sup> deydi prezidentimiz o'sha "Barkamol avlod orzusi" nomli kitobida. Shu bois hozirgi kunda yoshlarni talim-tarbiya olishlari uchun zaruriy chora-tadbirlar belgilanib, muayyan ishlar amalga oshirildi. Yoshlarni ta'lim-tarbiya olishlari uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratildi. Davlatimiz va hukumatimizning yoshlarga nisbatan berilayotgan bunday g'amxo'rliklariga ular o'zlarining "a'lo" va "yaxshi" baholarga oqishlari bilan javob berishlari lozim.

**Mavzuning dolzarbligi.** Men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir. Chunki ta'lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi"<sup>3</sup>, - degan edi prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Barkamol avlod orzusi" nomli kitobida.

Pedagog kadrlar, yetuk mutahassislar tayyorlash, o'qituvchilar malakasini oshirish hozirgi kunning dolzarb vazifasiga aylandi. Darslarni yuqori saviyada o'tkazish, darsga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni olib kirish, yangi-yangi dars uslublarini ishlab chiqish, noan'anaviy dars uslublaridan foydalanish, o'qituvchilarning o'z ustilarida ishlab borishlari, zamon bilan hamnafas yashash, ishlash oliy ta'lim va o'rta-maxsus kasb-hunar kollejlari hamda o'rta umumta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim vazifaga aylandi.

Ma'lumki, Davlat ta'lim standarti ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi.

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". "Sharq" nashriyoti. Toshkent. 1999 y. 24-b.

<sup>3</sup> Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". "Sharq" nashriyoti. Toshkent. 1999 y. 81-b.

Davlat ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy xujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'limning standarti o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi, hamda eng asosiysi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustivorligidan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakli va irodaviy bo'ysunishidan qat'iy nazar barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

O'zbek xalqining o'z tarixi, madaniyati, adabiyoti, san'ati, ming yillab insonlarni ezgulikka, mehr-oqibatga, rahm-shavqatga, or-nomusli bo'lishga, sabr qanoatga, poklik-halolikka, vafo-sadoqatga va iymon-e'tiqodga o'rgatib kelgan yaxshi urf-odatlar, rasm—rusumlari bor.

Milliy urf -odatlar va an'analarni bilmaslik, bilganda ham unga amal qilmaslik kishilarni o'z xalqining tarixiy madaniyatini, qadriyatlarini hurmat qilmaslikka olib keladi. Zotan, har bir milliy urf-odat va an'analar negizida milliy ruh, madaniyat va qadr kabi ulug' insoniy qadriyatlar yotadi.<sup>4</sup>

O'zbekiston Mustaqilligi tufayli mamlakatimiz hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Mustaqillik sharofati bilan qisqa davr mobaynida asrlarga tatigulik salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu, ayniqsa, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy sohalarda namoyon bo'lmoqda.<sup>5</sup>

Prezidentimiz I.A.Karimov milliy me'rosimizni va jahonning eng rivojlangan davlatlari tajribalarini ilmiy tahlil qilar ekan, jahon sivilizatsiyasining hozirgi bosqichida malakat rivojlanishining bosh omili inson ekanligini o'z asarlarida, nutqlarida, metodologik, ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berdi.

Bizning bitiruv malakaviy ishimiz “2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug'” bo'limini o'rganish uslublari” ga bag'ishlangan. Hozirga qadar yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda amaliy yordam beruvchi, bilim berish jarayonini soddalashtiruvchi, bir qancha ilmiy ishlar, nomzodlik dissertatsiyalari, qo'llanma va

---

<sup>4</sup> Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. “Ma'naviyat” nashriyoti. Toshkent. 2008 y. 52-b.

<sup>5</sup> To'rayeva O., Turopova M. “Odobnoma” 5-sinf. “O'qituvchi” nashriyoti. Toshkent. 1996 y. 3-b.

maqolalar yaratilganligi ma'lum. Biroq o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ularni vatanparvarlik, do'stlik, uy-rozg'or ishlari va mehmonga borish, mehmonni kutib olish kabi hislatlarni tarbiyalash, milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlarimiz, ota-bobolarimizdan bizga me'ros bo'lib qolgan boy adabiy, madaniy va tarixiy boyliklarimizni chuqur o'rgatishga qaratilgan ilmiy ishlar hozirgi vaqtda dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. O'quvchilar o'rtasida do'stlik, mehmondo'stlik va oqibatlilik kabi ijobiy fazilatlarni shakllantirib, ularni komil inson qilib tarbiyalamoq kerak.

Bunday ruhda tarbiyalash orqali, avvalo, o'zbek xalqi tarixi millatimizga bo'lgan munosabat, urf-odatlarimiz, ota-bobolarimizdan qolgan boy adabiy va madaniy me'ros hamda o'zbeklarning tarbiyasiga chuqur hurmat bilan qarashga va o'quvchilarni komil inson qilib tarbiyalashga katta hissa qo'shgan bo'lamiz.

#### **Malakaviy ishning ilmiy yangiligi:**

“2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug'” bo'limini o'rganish uslublari”ga bag'ishlangan ilmiy ishlar, ilmiy qo'llanmalar ko'plab yaratilgan bo'lsada, hozirgi zamon dunyo miqyosidagi ta'lim jarayoni ushbu mavzuga oid ilmiy izlanishlarni davom ettirishni, o'quvchilarning Vatanga bo'lgan muhabbatlarini shakllantirish va uni rivojlantirish, ularni milliy istiqlol va milliy g'urur ruhida tarbiyalash, har tomonlama yetuk komil qilib tarbiyalash, qolaversa, o'quvchilarning lug'at boyliklarini oshirib borish, erkin fikrlash, erkin so'zlash, mustaqil fikr ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantirish kabi masalalarni eng muhim vazifa deb qarashni taqozo etadi. Bitiruv malakaviy ishimizni yozish jarayonida ushbu mavzuga oid hozirgacha yaratilgan ilmiy ishlarga, o'quv qo'llanma va maqolalarga hamda umumta'lim maktablarida uzoq yillardan buyon yoshlarga ta'lim va tarbiya berib kelayotgan tajribali pedagoglarning ilg'or tajribalariga suyardik.

#### **Malakaviy ishning maqsadi:**

2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug'” bo'limi yuzasidan o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish usullarini o'rganib chiqish, tahlil qilish, samarali natijalar beruvchi usullarni tajribadan o'tkazish.

#### **Malakaviy ishning vazifasi:**

“2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug” bo’limini o’rganish uslublari” nomli bitiruv malakaviy ishimizning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Boshlang’ich sinflarda odobnoma darslarini tashkil etishning pedagogik-psixologik asoslari aniqlab olish;
2. Odobnoma darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini o’rganish ;
3. O’zbek xalqining mehmon kutish odobiga oid o’ziga xos xususiyatlari nimadan iboratligini aniqlash;
4. 2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug” bo’limini o’rganish uslublari tahlil qilish;
5. 2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug” bo’limini o’rganishning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati aniqlash;
6. 2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug” bo’limini o’rganishda Prezident asarlaridan foydalanish samarali natijalarini dars ishlanmalari orqali yoritib berish;

**Malakaviy ishning obyekti:**

“2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug” bo’limini o’rganish uslublari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimizni Namangan shahridagi 27- umumta’lim maktabining 2A – sinfida tajribadan o’tkazdik. Nazorat sinfi etib mazkur o’rta umumta’lim maktabning 2B– sinfini tanladik.

**Malakaviy ishning tuzilishi:**

“2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug” bo’limini o’rganish uslublari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, tajriba – sinov ishlari, xulosa, tavsiya va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati kabi qismlardan iborat.

## **I bob. Boshlang'ich sinflarda odobnoma darslarini tashkil etishning pedagogik-psixologik asoslari**

### **1.1. O'zbek xalqining mehmon kutish odobiga oid o'ziga xos xususiyatlari**

Mehmondorchilik ya'ni mehmon kutish va kuzatish odati dunyodagi aksariyat xalqlarga xos xususiyatdir. O'zbek xalqi bu jo'mard odatni juda qadim zamonlardan ixtiyor qilgan. Shuning uchun madaniyatimizning ko'hna manbalarida mehmondorchilik insonning, oilaning, qabila va xalqning odamiylik, sahovat, madaniy va ma'naviy aloqasi-muloqoti mezoni sifatida juda katta qadr bilan tilga olinadi. Sharq xalqlari orasida mashhur bo'lgan Hotami Toyi hikoyati Navoiy bobomizning asarlari orqali bizga ma'lum va mashhurdir. Ularda mehmonga eng so'nggi luqmasigacha saxiylik bilan tutqazgan, oila va qabila sha'nini saqlab qolgan ajoyib inson haqida hikoya qilinadi. Xalqimiz eski zamonlardayoq "Mehmon otangday ulug'" degan naqlga ko'ra eshikdan kelgan odamni hurmat-ehtirom bilan kutib olib, izzatini joyiga qo'yib, kuzatib qo'yishgan.

Mehmonning mahrini asrag'il jon ichra,

Ne'matin qalin ayla xoni ehson ichra.

Yuqori o'ltururni kim tilasa,

Kishilikdin oni yiroq bilgil.

O'lturur safda yuqoriliqdin,

O'lturur safda yaxshiroq bilgil.

Yuqoridagi she'riy misralar orqali shoir mehmonning hurmatini o'z joningni qanday asrab-avaylasang shunday asrab-avaylagin, kim yuqorida, uyning to'rida o'tirishni istasa, bunday odamni insoniylikdan yiroqda deb bilishi, yuqorida o'tirishdan ko'ra ushbu odamlar orasida, safda o'tirishning o'zi hamma narsadan afzal demoqchi.

O'zbek xalqining uzoq tarixga ega bo'lgan juda ham ajoyib va xilma xil urf-odatlar mavjud. Kundalik hayotimizga aylanib qolgan, odat tusiga kirib qolgan va barcha unga amal qilishga ko'nikib qolgan marosimlar urf-odatlar hisoblanadi. Masalan, xonadonda farzand tug'ildi deylik. Shundan keyin o'tkaziladigan quyidagi tadbirlarni birma-bir sanab o'tamiz. Farzandga ism qo'yish, ism qo'yishni o'zi ham

bir urf-odat. Katta qozonda osh damlab, yurtga osh berib, “Aqiqa” to’ylarini o’tkazish, Chaqaloq uchun “Besh kecha” “Ko’rmana”, “Yo’qlov”, “Soch olish”, yura boshlaganda oyog’ining orasiga qadoqlangan quruq “Choy otish”, o’g’il farzand uchun “Xatna” to’yi qilish va “Qo’lini halolash” deb nomlangan marosimlar o’tkazish ham urf-odatlarimizga aylanib qolgan. O’g’il farzandni uylash, uyli-joyli qilish, ro’zg’orini ajratib berish, qiz farzandni esa munosib kuyovga uzatish kabi marosimlarimizning har birining o’zida ko’plab bir-biridan qiziq urf-odatlarimiz mavjudir.

Mehmon kutish va mehmonga borish odobi to’g’risida yana ko’plab o’zbek xalqining o’ziga xos xususiyatlarini sanab o’tish mumkin. Masalan “To’y” marosimini olaylik. To’y marosimlarida o’zbek xalqiga xos mehmon kutish va mehmonga borish odati boshqa xalqlarda uchramaydi. Bitta to’yning ikki-uch kun mobaynida o’tkaziladigan tadbirlarida eng kamida 300-400 nafar mehmon kelib ketishi mumkin. Aksariyat hollarda, minglab mehmonlar kutib olinadi va kuzatiladi. O’tkaziladigan to’y marosimlarida minglab odamlarning qatnashishi o’zbek xalqining o’ziga xos xususiyatlaridan biri desak yanglishmagan bo’lamiz.

Boshqa xalqlarda eng ko’pi bilan 50-100 nafar mehmon bilan to’y marosimlari o’tkaziladi. Juda ko’p hollarda 8-10 yoki 10-14 nafar mehmon bilan to’y marosimlari o’tkazilganligining guvohi bo’lganmiz.

Bizning to’y marosimlarimiz boshida, albatta, ota-onalarimiz turishadi. Ular to’yga kelgan mehmonlarni izzat-ikrom bilan kutib oladilar va kuzatib qo’yadilar. Ular to’yni qanday xohlashsa, shunday o’tadi. Ular qizlarini kimga turmushga berishni istashsa, o’shanga berishadi. Ular o’g’illariga kimni olib berishni istashsa, o’shani olib berishadi. Ba’zi xalqlarda xatto ota-onalarsiz ham to’y marosimlari o’tkaziladi. O’zlari istagan va ma’qul ko’ringan inson bilan turmush qurishadi. Bir-ikki yil bir oila sifatida yashaganlaridan so’ng agar bir-birlariga ma’qul tushishsa, birga nikohdan o’tishadi. Mabodo birga yashab ketishlariga ko’zlari yetmasa, ajrashib, boshqa-boshqa yashab ketaverishadi. Bizning o’zbek xalqida bunday holat umuman uchramaydi.

O'zbek xalqining mehmon kutish odobiga oid yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, to'yga boradigan kishilar hech qachon quruq qo'l bilan mehmonga borishmaydi. Albatta, to'y qilayotgan, mehmon kutayotgan yaqinlariga sovg'a-salomlar olib borishadi. Agar sovg'a-salomlar olib borishga ulgurishmasa, sovg'aning pulini berib to'y qilayotgan xonadonga kirib ketishadi. Ayollar esa to'y marosimi uchun o'z qo'llari bilan nimalarnidir pishirishadi. Tog'oralarga turli xil pishiriqlar yoki shirinliklar solib qo'llarida yoki boshlarida ko'tarib borishadi.

O'zbek xalqining mehmon kutish odobiga oid yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, tashrif buyurgan barcha mehmonlarning qo'llariga suv quyiladi. Bu dasturxonga qo'yilgan nozu nematlarni toza qo'l bilan ushlab iste'mol qilish ma'nosini anglatadi.

O'zbek xalqining mehmon kutish odobiga oid yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, o'ta tushkun holatda turilsa ham, ichida yig'lab turilsa ham kelgan mehmonlarga uni bildirmaslikka harakat qilinadi. Bunday mehmon kutish odobi, albatta, kelgan mehmonlarga nisbatan hurmat-izzat ko'rsatishning bir belgisi bo'lsa kerak<sup>6</sup>.

O'zbek xalqining mehmon kutish odobiga oid yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, janjal yoki qandaydir nizo chiqib, oila a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar sodir bo'lgan vaqtda xonadonga mehmon kelib qolsa, mehmonning sharofati bilan har qanday nizo va urush-janjallar darhol to'xtatiladi. Bo'lib o'tgan kelishmovchiliklar mehmon ketgunga qadar hech kimning yodiga tushmaydi. Agar mehmon kelgandan keyin ham urush va janjallar davom etsa, mehmon o'zini noqulay sezadi va bemavrid **kelib** qolganini his etadi. Oxir-oqibat mehmon ketish taraddudiga tushadi. Bunday ko'ngilsiz holatlar kamdan kam xonadonlarda ayrim mehmon kutish odobidan bexabar kishilarning noo'rin hatti-harakatlari oqibatida sodir bo'ladi.

O'zbek xalqining mehmon kutish odobiga oid yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, aksariyat xonadonlarda turli xil shirinliklar

---

<sup>6</sup> <http://www.referat.uz/> - "Mehmondo'stlik odobi"

tarelkalarga solingan holda shkaflarning maxsus joylarida, keksalar yashaydigan xonadonlarida esa sandiqlarda saqlanadi. Bu, birinchidan, mehmon kutish odobining o'zbek xalqiga xos bir xususiyatlaridan biri bo'lsa, ikkinchidan, mehmon kelib qolganda shoshib qolmaslik, mehmonni kuttirib qo'ymaslik kabi tomonlari mehmonga izzat-ikrom ko'rsatishning bir belgisi bo'lsa ajab emas.

O'zbek xalqining mehmon kutish odobiga oid yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, har bir o'zbek xonadonida mehmonlarni kutib olish va yaxshi mehmondorchilik qilib kuzatib qo'yish uchun maxsus mehmonxonalar quriladi. Keng va shinam mehmonxonalar hamisha bezatilgan, ozoda bo'lishi bilan birga dasturxonlar yozilgan holatda saqlanadi. O'zbekistonda mehmonxona qurmagan odamni-yu mehmonxonasi bo'lmagan xonadonni topish amrimahol.

O'zbek xalqi qadimdan o'z xonadonlarini doimo toza va ozoda tutib kelgan. Har kuni tong otar-otmas kelinlar va qizlar uyqudan uyg'onishib, tozalov ishlarini boshlashadi. Tozalov ishlari avvalo ko'cha tomondan boshlanadi. Ko'chalar so'ng hovli ichlari supirilib, suvlar sepiladi. Demak, o'zbek xalqi hamisha mehmon kutishga tayyor turishni yoqtiradi. Mehmonlar kelgandan so'ng tozalov ishlari bilan shug'ullanishni yoki mehmon kelgan vaqtda xonadonlarini besaramjon turishini xohlashmaydi<sup>7</sup>.

O'zbek xalqining mehmon kutish odobiga oid yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, xonadonga tashrif buyurgan mehmonning oldiga solingan dasturxonga birinchi bo'lib non qo'yiladi. Bu odat ya'ni mehmonni non-tuz bilan kutib olish odati mehmonga nisbatan izzat-ikrom ko'rsatishning bir belgisi bo'lsa kerak.

Mehmon kutish odobi haqida o'quvchilarga tushunchalar berishda o'qituvchi darslarning ma'lum bir qismida, masalan, yangi mavzuni mustahkamlash qismida rolli o'yin usulidan foydalanishi mumkin. Bunda o'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar: mehmon **kutuvchi xonadon** egalari va mehmonga boruvchi mehmonlar guruhiga. Shundan so'ng birinchi guruh xonadonga tashrif buyurgan mehmonlarni

---

<sup>7</sup> <http://www.ziyonet.uz/> "Odob – inson ziynati"

kutib oladilar, ularning oldilariga dasturxonlar yozadilar, mehmonlarni har xil pishiriqlar bilan mehmon qiladilar hamda ularga juda ham chiroyli muomalada bo'ladilar. Ikkinchi guruh esa mehmonga tashrif buyuradilar, xonadon egalari bilan shirin muomalada bo'ladilar, odob saqlagan holda o'tiradilar.

Ushbu rolli o'yin o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi va rolli o'yinni juda ham yaxshi ijro etadilar. Chunki bolalar kattalar, ota-onalar bilan ko'p marotaba qarindosh-urug'larnikiga mehmonga borishgan. Mehmonga borganlarida kattalarning hatti-harakatlarini kuzatishgan.

Bolalar uyda bo'sh qolgan paytlarida bir nechalari to'planib olib "Xola-xola" deb nomlangan o'yinlarni o'ynab turishadi. Bu o'yinni o'ynash ularga katta zavq-shavq bag'ishlaydi. Sinf xonasida o'qituvchi tomonidan ushbu o'yinni o'ynash taklif qilinsa, o'quvchilar bajoni dil rozi bo'ladilar. O'qituvchi o'yinni kuzatib borishi, ularga yo'l-yo'riqlar ko'rsatib borishi va xatolarini o'z vaqtida to'g'rilab borishi lozim.

Odob ilmi — Vatan tuyg'usi, salom berish odobi, oilada milliy urf-odat va an'analarga rioya qilish demakdir. Xalq pedagogikasi, ota-onalar nasihatlari, xalq og'zaki ijodiyoti materiallari bo'lmish doston, ertak, rivoyat hamda buyuk shaxslar ijodi, hayotidan namunalar keltirish va ular o'gitlarini o'rganish orqali murg'ak qalbni tarbiyalashdir. I—IV sinflar «Odobnoma» dasturi oddiydan murakkabga qarab boradi, biri ikkinchisini to'ldiradi, boyitadi<sup>8</sup>.

I sinfda «Odob salomdan boshlanadi» mavzuida o'quvchilarga dastlabki salomlashish odobi o'rgatiladi.

II sinfda u asta-sekin rivojlantirilib, «Yaxshi so'z — jon ozig'i» mavzuiga bog'lanib ketadi.

III sinfdagi «Orastalik — yaxshi odob» mavzuiga doir darsda insonlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi vosita, ularning odobi, ochiq chehrali ekanligini, IV sinfdagi «Odob — inson ziynati» mavzuida salomlashish, xushxulqlik, insondagi odoblilik yuksak fazilat ekanligi asoslab beriladi.

---

<sup>8</sup> <http://www.google.co.uz/> - "Odobnoma darslarini tashkil etish"

IV sinf dasturiga kiritilgan yuvinish odobi bobida eng avval qo'lni, so'ng panja oralarini, so'ngra oyoq panjasi oralarini sovunlab yuvish zarurligini bugungi tibbiyot ilmi to'g'ri deb topganligi, chunki agar oyoq va qo'l panjasi oralari yuvilmasa, uzoq vaqt suv tegmasligi natijasida odam a'zosining bu qismlarida turli mikroblarning rivojlanishi uchun muhit yuzaga kelishini uqtirmoq zarur. Urf-odatlarimizga ko'ra, qo'lni yuvgandan so'ng siltash makruh deb, ma'qullanmaydi. Chunki yuvilgan qo'l siltanganda undan uchib chiqqan suv zarralariga yopishgan mikroblar atrofdagi oziq-ovqat mahsulotlariga tushishi, yaqin turgan kishining yuz-ko'ziga sachrab, noxush holat yuzaga kelishi mumkin. Bu esa odobdan emas. Ana shunday odatlarning taqiqlanishi sababini tushuntirish zarur.

«Erta tur, erta turganning rizqi ulug' bo'ladi», -deyilishiga sabab nimada ekanligini, albatta, misollar bilan izohlab berish kerak. Inson faoliyati ultrabinafsha nurlar ta'sirida kuchayadi. Tabiatdan ma'lumki, ultrabinafsha nurlar quyosh chiqishi oldidan mo'lroq bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, erta saharda uyqudan turgan kishilar sog'lom va tetik yuradi, ishida unum bo'ladi.

Shuningdek, bolalarga yoshligidanoq nima savob nima gunoh, nima halol nima xarom kabi o'zbekona turmush tarziga xos tushunchalarni o'rgatishga ahamiyat berish zarur.

Odob va axloq darslarini namunali, qiziqarli, sermazmun o'tishda otionalarning yaqindan ko'maklashishlari taqozo etiladi.

Darslardagi har bir mavzu bolalarning kundalik hayoti, turmush tarzi bilan uzviy bog'langan. Har bir bo'lim va mavzular tarbiyaviy jarayondan ayricha emas, o'qituvchi mavzularni o'zi yashaydigan mahalliy sharoitdan ham olishi mumkin. Tarixiy, madaniy obidalar, rasm-rusumlar dars yo'nalishini tashkil qiladi.

I—IV sinflar uchun «Odobnoma» fani bo'yicha yaratilgan mazkur dasturdagi bo'lim va mavzularda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari, bilim darajalari hisobga olingan. Ular asta-sekin takomillashtirilib, rivojlantirilgan.

«Odobnoma» darslarini maktabning tajribali, bilimdon, zukko, oq-qorani yaxshi tanigan, iymon-e'tiqodli, hayo va iboli o'qituvchilari o'tishi, ayrim hollarda

shoiru yozuvchilar, olimu fuzalolar, yetuk shaxslar olib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buyuk hazrat Alisher Navoiy «Haqiqiy sharaf hayo va odobdan keladi», - degan edi. Darhaqiqat, odob muammosi kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan boshlab, xalq ijodining mahsuli — afsona, ertak, doston, maqol, rivoyat va hikoyatlarda o'z ifodasini topgan. Hozirgi mustaqillik sharoitida o'zbek diyorida xalqimizning o'z ona tili va madaniyatiga bo'lgan e'tiqodi kuchaydi. U doimo yashnab turgan guldur. Biz shu ona tilimiz orqali mutafakkir va ma'rifatparvarlarning asarlarini dilimizga jo qilamiz. Shuning uchun «Odobnoma» darslarida sof o'zbek tilida so'zlashishga alohida ahamiyat berish lozim. «Odobnoma» ilmining maktab o'quv rejasiga kiritilishi ma'naviyatimizni rivojlantirish yo'lidagi dadil qadamdir. Bu fanni o'qitishdan maqsad: bolalarni sog'lom turmush tarziga tayyorlash, ularda ota-onadan mamnun bo'lish hissini uyg'otishdan iboratdir. Muddaomiz o'quvchilarga hayotimizdagi yaxshilik va yomonlik tushunchalari mazmunini anglatishdan iborat ekan, biz bunga erishmog'imiz, kelajagi buyuk yurtning har tomonlama yetuk, barkamol shaxslarini tarbiyalab voyaga yetkazmog'imiz, bu yo'lda «Odobnoma» fani saviyasini oshirmog'imiz lozim.

Odamzodning minglab xislat-fazilatlarini ichra Odam ato va Momo havodan to hozirgacha yaxshiligi yomonlikning, ezguligi qabohatning hamma illatu ziynatlari yashab keladi. Inson go'zal hislatlar, yaxshi fazilatlar, nurdek pokiza umid-niyatlar bilan komillikka-kamolotga intilib boradi. Odamning azizu mukarram bo'lishi unga berilgan – Aql bilan bog'liqdir. Zero aqlni olloh odamning eng tabarruk a'zosi- bosh miyaga mujassam etgani ham bejiz emas. Aqlli odamlar hammaga yoqimli bo'ladi. Aql bilan odob egizak. Shuning uchun aqlli odamning odobi a'lo bo'ladi. “Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin” degan hikmatda katta ibrat bor. Odam o'zi ilm-zakovatli bo'lsa-yu, odobi kemptik ya'ni xunuk va qo'pollik kasb etsa, uni odam deyish qiyin. Dono xalqimiz nasling – mansabing, boyliging, xullas kim bo'lishingdan qat'iy nazar, “Avvalo inson bo'l” deb oqilona aytgan.

Insonga ziynat bag'ishlaydigan fazilat odob, axloqdir. Axloq ilmi-yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi murakkab muammolar haqida bahs yuritib, insonning

komillikka erishish yo'lini yoritib boradi. Har bir odam bir olam bo'lgani kabi, o'sha insonning odob-axloqi ham juda murakkab, ikkinchi bir olam, desak yanglishmaymiz. Chunki, shaxsning zohiriy va botiniy olamini, ayniqsa, qalb olamini o'rganish, bilish, tahlil etish g'oyatda qiyin. Bu ruhiyat bilan bog'liq holatdir. Odobli komil insonda odamiylikning bir qator xislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shafqat, adolat-u diyonat, hayo-yu iffat, zarofat-u nazokat, vafo-yu sadoqat, himmat-u sahovat, fido-yu oqibat, izzat-u hurmat, imon-e'tiqod kabilar mujassam topgan bo'ladi, ayni holda shu xislatlarning aksi beburd-axloqsiz kimsalar odobida ko'rinadi. Har bir xalqning nufuzi va obro' – shuhrati kishilarning odob-axloqi, yaxshi xislat-fazilatlari bilan belgilanadi, shu taxlit bahosini oladi. Qadimgi faylasuflaru donishmandlar odob-axloq jamiyatning poydevori deganlar. Bir quturgan buqa butun podani tarqatadi deganlaridek, axloqsiz, yolg'onchi, riyokor, hasadgo'y, muttaham, makkor shaxsning kasri mingga urib, jamiyatga katta zarar yetkazadi. Shuning uchun jamiyatning har bir a'zosining xulqi-odobiga alohida e'tibor beriladi. Yaxshining yomon bo'lishi oson, lekin yomonning yaxshi bo'lishi qiyin. Dunyoda odam bolasi yomonlik bilan yaxshilikning ostonasida turadiki, arzimas bir ichki yoki tashqi sabab bilan ostonadan chiqib yo yomonlik tomon, yo yaxshilik tomon ketishi mumkin. Odob-axloq ilmi va tadbirlari ana shu holatlarni o'rganadi, tahlil etadi va odamga yaxshi yo'lni ko'rsatadi.

Asrlar davomida axloq-odob mavzularida jild-jild kitoblar: hikmatnomalar, odobnomalar, pandnoma va nasihatnomalar, ibratli hikmatu o'g'itlar yozilgan. Xalq og'zaki ijodining xazinalarida axloq-odobga doir bebaho durdona hikmat-ibrat javohirlar borki, ularni hisoblab hisobiga, ta'riflab ta'rifiga yetib bo'lmaydi.

Ilohiy dastur —«Qur'on» kitobida va payg'ambarimiz Muhammad Mustafo Sallollohu alayhi vassalamning hadislarida insoniy odobning hamma yaxshi fazilatlari ko'rsatib o'tilgan. Muqaddas kalimalarning deyarli hammasida insonga yomonliklarning zarari bayon etilib, undan qanday asralish haqida yo'l-yo'riq ko'rsatib qo'yilgan. Agar odam bolasi yomonlik sari ketgan bo'lsa, din uni bu razolatdan qaytargan. Dinning targ'ibotida insonning to'g'ri yo'ldan yurishi odob

taraqqiyotining zamini deyiladi. Chindan ham shunday. Jamiyatda to'g'ri yurish ibrati yaxshi yo'lga qo'yilsa, o'sha jamiyatda odob-axloq gurkirab o'sadi, odamlar nurafshonlik va farovonlik topadi. Agar odam bolasida to'g'ri yo'ldan yurish xohishi bo'lmasa, u yomon yo'lga tushadi, yomon yo'lga tushgan bandasida yaxshilik va xayrli ishlarga rag'bat bo'lmaydi, oqibatda u razolat va gunohlar botqog'iga botadi.

To'g'ri yo'ldan yurishning hikmat ibratlari nihoyatda cheksiz. To'g'ri yo'ldan borgan odam orzu-niyatining manziliga, albatta, yetadi. Dili toza odamning yo'llari ochiq bo'ladi. Dil tozaligi esa pok niyatga, yaxshi umid-orzu qilishga bog'liq bo'lib, odam har doim o'zini yomon o'y-fikrlardan isloh qilib, ya'ni poklanib turishi kerak. Demak, bir odam bilib-bilmay gunoh ish qilib qo'ydimi, «Endi shu yo'ldan ketarkanman» deb noumid bo'lmasligi, tavba qilishi, to'g'ri yo'ldan yurishga ahd qilishi kerak. Donolar noumid bo'lishni g'oyat qoralab, bunday holat odamni yomon ishlar bilan mashg'ul bo'lishga chorlashini alohida ta'kidlaydilar, «noumid—shayton» deydilar. To'g'ri yurgan odamga rahmon har qachon rahmli va mehribondir.

Mashhur Imom A'zam — Abu Hanifa an-No'mon ibn Sobit odam bolasining kamtar-kamsuqimlikda yer-tuproq kabi bo'lishlikni, yaxshilik odobning ziynati ekanini mana bu tarzda ifoda etgan:

Agarchi olama sendan tegar naf',  
O'zungdan qilma tufrog' oyni daf'. ..  
Otang yerdir, sen ham yerdek qiliq qil,  
Yomonlig' aylaganda yaxshilik qil.

Yomonlikni yaxshilik bilan daf qilish, ko'ngilda gina-kudurat saqlamaslik, har qanday gunohli o'y-xayollardan forig' bo'lish, qalbni poklash, imonni mustahkamlash bo'ladi. Imoni butun odam hech kimga hech qachon yomonlikni ravo ko'rmaydi. Bunday axloq-odobli odamni hamma sevadi va izzat-ikrom qiladi.

Dunyoda insonga tuhfa etilgan AQL ne'mati shunday qudratli kuchki, u bilan odam o'zini istagan holatda tarbiya eta oladi, har qanday azob mashaqqatni, har qanday yomonlikni, eng murakkab muammolarni ham Aql ne'mati bilan

yengadi va hal etadi, ruhiy kamolot odam qalbida axloq-odobning yuksak koshonasini yaratadi. Bunga uni odam ilmi chorlaydi.

Aql-zakovatning kamoli o'qish, o'rganish, tahlil etish, idrok qilish, e'tiqod qo'yish, hayot tajribasini egallash bilan bo'ladi. Yosh niholning barvasta daraxtga aylanishi parvarishiga bog'liq bo'lganidek, odam bolasi komil inson bo'lib yetishishi uchun uni murg'aklikdan axloq-odob ilmidan bahramand etib borish lozim. Ota-onalar va kattalar yoshlarning kelajak baxt-saodatini va ularning yetuk inson bo'lishidan faxr-g'urur lazzatini surmoqchi bo'lsalar, bolalik chog'idan aql-zakovatining o'sishiga alohida diqqat-e'tibor qilishlari kerak.

O'zbek xalqi asriy orzusiga erishdi, mamlakatimiz Mustaqillik degan buyuk erkinlikni qo'lga kiritdi.

Yangi jamiyat barpo etar ekanmiz, yangicha tafakkurli kishilar shu jamiyatni olg'a boshlovchi kuchga aylanadi. Bunday ilg'or insonlarni yetkazishda madaniyat, maorif, umuman, ma'naviyat muhim o'rinni egallaydi. Hozirgi paytda O'zbekistonimiz Prezidenti Islom Karimov mafkura—ma'naviyatimizni birinchi o'ringa qo'yib, ayniqsa, yosh avlodni komil insonlar qilib yetkazishga alohida e'tiborni qaratmoqda. Ma'lumki, yosh avlodning har tomonlama barkamol bo'lib yetishishida uning xulq-odobi asosiy mezondir. Odobli insonlar ko'p bo'lgan jamiyat gurkirab o'sadi va xalqi to'liq farovonlikka erishadi.

Inson yashar ekan, faqat yeb-ichish, yaxshi kiyinish, farovon turmush kechirish bilangina hayot kechirolmaydi, unga ma'naviy-madaniy oziq kerak. Bu ilm-fan, aql-zakovat, san'at-adabiyot, kasb-hunar, himmat-ibratdan iborat bo'lishi kerak. Ana shunda har tomonlama odobli, komil insonlar yetishadi. Bunday xalqning shuhrati dunyoga taralib, mamlakat chinakam buyuk davlat bo'ladi. Xo'sh, odobli inson deganda qanday xislat-fazilatli odamlarni tushunamiz?

Odob insonning tabiati bilan bog'liq bo'lib, u o'zaro aloqa-munosabatda shakllanadi. Ma'lumki, odam yolg'iz o'zi yashay olmaydi, kimsasiz orolga tushib qolgan odam amal-taqal umr kechirishi mumkindir, lekin uning hayoti insonlarcha yashash bo'lmaydi.

Demak, inson odamlar orasida yashar ekan, o'zaro muomala-munosabatda bo'ladi, u o'sha jamiyatdagi odamlarning axloq-odobi ko'zgisida yashaydi, unga ko'nikadi. Husni odobning sohiblarini hamma yaxshi ko'radi.

Axloq-odobning ma'lum bir qoidasini hamma uchun bir qolipda tavsiya etib bo'lmaydi. Har bir odam ichki va tashqi olami bilan bir-biridan ranglar kabi farq qiladiki, komil insondagina hamma yaxshi fazilatlar mujassam bo'ladi.

Biz 2- sinf «Odobnoma» darslarida inson fazilatining gultojisi hisoblangan ko'pgina hislatlarni o'rganib chiqdik. Bular quyidagilar: shirin muomala, kam-tarlik, ota-onaga va kattalarga hurmat-izzat, yaxshilarga taqlid qilib, ulardan ibrat olish, el-yurtga fidoyilik, kasb-hunar va uy-ro'zg'or yumushlarini egallash va uddalash kabilardan iborat bo'ladi.

3-4-sinflarda o'tiladigan «Odobnoma» darslari o'quvchilarning axloq-odob haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirib, odobning serjilva tomonlariga e'tiborni tortadi.

Dunyoda har bir kimsani odamiy bo'lishga da'vat etuvchi «Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l», «Qari bor uyning zari bor», «Arslon izidan, yigit so'zidan», «Qiz bola onaning malhami—joni», «Hunar—hunardan unar», «Beshikdan tobutgacha ilm izla» kabi hikmatona mavzularda odam faqat o'z manfaati, maishati, huzur-halovatini ko'zlaydigan xudbin bo'lmasligi, men palon-chining o'g'liman (qiziman) deya obro'li otasi bilan mag'rurlanmasligi, balki o'zining hayoti davomida chin odamiyligi, boshqalarga qiladigan yaxshiligi: xush xulqi, yaxshi fe'l-atvori, shirin so'zi, olijanob fazilatlarini bilan amalda o'zini ko'rsatsin, degan mazmun yotadi. Shuningdek, ota-ona va qariyalarni hurmat qilish, ular misoli sharqirab oqib turgan bir daryoki, odob-ibratlaridan doim bahramand bo'lish kerakligi uqtiriladi. Qiz va o'g'il bola odobi, yigit g'ururi, qiz sha'ni, ilm-hunar egallash, o'zini mehnatda chiniqtirish, yaxshi udum, rasm-rusumlarga amal qilib, o'tganlar ruhini shod etish, nafsni tiyish, kishini badnom qiladigan ishlardan qochish, savob va xayrli ishlarga qo'l urish, imon-e'tiqodli bo'lish kabilarga da'vat etiladi.

## 1.2. Odobnoma darslariga qo'yilgan DTS talablari

Maktabga ilk qadam qo'ygan 1-sinf o'quvchisining odob va axloqi qanday bo'lishligiga alohida ahamiyat berildi.

Odobnoma fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarga axloq va odobga doir quyidagi bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi:

— umuminsoniy qadriyatlar va milliy merosimiz asosida xalq va ajdodlarimiz yaratgan «nima yaxshi, nima yomon»ligi haqida bilimga ega bo'ladi;

— sharqona odob-axloqqa doir fazilatlar mazmuni, mohiyati va ularning hayotiy zaruriyati haqidagi tushunchalarning uzviy rivojlanishi o'quvchi e'tiqodiga aylanib boradi;

— odob-axloqqa doir bilimlar O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi va milliy istiqlol g'oyasi bilan uyg'unlashtirilib, hosil bo'lgan tushuncha va bilimlar mustahkamlanadi;

— o'quvchilarga o'z-o'zini boshqarish odobi, madaniyati haqidagi tushunchalar mustaqil fikrlash orqali rivojlantiriladi;

— odobnoma ilmi bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish uchun dastlabki axloq-odobga doir tushunchalarni bolaning qalbiga yetkazishda uzviylik tizimiga amal qilish;

— axloq-odobga doir bilimlarni bolaning kundalik ehtiyojiga aylantirish;

— o'quvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan ijobiy fazilatlardan g'ururlanish, mamnunlik hissiyotini tarbiyalash;

— badxulqlik — yomon odatdan nafratlanish va undan uzoqlashish kerakligini takror anglatish;

— o'quvchining kundalik faoliyatida o'z xatti-harakatlarini baholay olishiga o'rgatish ko'zda tutiladi.<sup>9</sup>

Mustaqil respublikamiz rahbariyati xalq ta'limini mazmunan ya'nada juda katta tadbirlarni amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni fuqorolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning

---

<sup>9</sup> Hasanboyeva O. "Odobnoma 1-4-sinf" o'qituvchilar uchun qo'llanma. "O'zbekiston". Toshkent. 2009 yil. 25-30-b.

huquqiy asoslarini belgilaydi va har kimning bilim olish huquqini ta'minlashga qaratiladi.

Ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu qonundan hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Agar O'zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomasida ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlaridan o'zgacha qonun belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvor deb e'lon qilinadi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar demokratik harakterda ekanligi;
- ta'lim uzluksiligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta-maxsus, kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlarida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondashish, bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va boshqaruvni uyg'unlashtirish;

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir. Umumiy o'rta ta'limning davlat standarti o'quvchilarning tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan eng kam mezoni belgilaydi.

Davlat ta'lim standarti bo'yicha ta'lim mazmunini, shakllari, vositalari, usullari baholanadi. Standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalari ta'lim barqaror darajaga keltiriladi. Demak, ta'lim standarti o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, qo'llanmalar, darsliklar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hududiy maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks

ettiradi hamda eng asosiysi o'quvchi shaxsini uning intilishlari qobiliyati va qiziqishlari, ustuvorligidan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan mulkchilik shakllari va idoraviy bo'ysinishdan qat'iy nazar, barcha ta'lim muassasalari uchun majburiy hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartini ishlab chiqishda quyidagi me'yoriy hujjatlarni asos qilib oladi:

- "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tarbiya va Kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bilan bog'liq farmonlari, farmoyishlari va asarlari;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida" 1998-yil 5-yanvardagi 5-son hamda "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida" 1998-yil 13-maydagi 203-son qarorlari.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yori hamda maktabning moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini minimum hajmdagi miqdorini o'zida aks ettiradi, u har bir sinfdan muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat standartlariga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

**Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish asoslari.**

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda quyidagi me'yoriy hujjatlar asos qilib olindi:

• "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari;

• O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bilan bog'liq farmonlari, farmoyishlari va asarlari.;

• O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimi

uchun davlat ta'lim tizimi standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida" 1998-yil 5- yanvardagi 5-son hamda "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida" 1998- yil 13- maydagi 203-son qarorlari;

- Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti quyidagi printsiplarga tayangan holda ishlab chiqiladi.

- Davlat ta'lim standartining davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

- O'quv dasturlari mazmunining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan texnika rivojlanishi bilan bog'liqligi;

- Umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

- Umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

- Ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

- Umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga tayanish;

- Pedagogik tafakkurda qaror topgan an'anaviy qarashlar bilan "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qonunlarida ifodalangan zamonaviy talablarning uzviyligi;

Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining o'quv rejasi - Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim sohalarini me'yorlashga hamda maktabning moliyaviy ta'minotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi, o'quv predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazib, ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmdagi miqdorini ifodalaydi. U har bir soatda muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat ta'lim standartiga muvofiq beriladigan ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.

O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablar.

Umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichdan iborat bo'lib, boshlang'ich (1-4-sinflar). va umumiy o'rta ta'lim (1-9-sinflar)ni qamrab oladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standart boshlang'ich hamda umumiy o'rta ta'lim nihoyasida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasini belgilab beradi.

Har bir sinf yakunida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim predmetlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturlarida o'z aksini topgan.

«Odobnoma» fani bo'yicha o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari lozim:

- odob insoniy fazilatlarining ziynati ekanligini anglash;
- odob-axloqqa doir g'oyalarga o'z munosabatini erkin bayon etish;
- ijtimoiy hayotdagi xulq-atvorlarga befarq bo'lmaslik;
- odobsizlik holatlari salbiy oqibatlariga olib kelishini anglash;
- ota-ona oldidagi farzandlik burchlarini his etish;gunoh va savob nima ekanligini anglash;
- ajdodlarimiz boy merosini o'rganish va ularni e'zozlash;
- ilm-hunar egallash ezgu fazilat ekanligini bilish;
- milliy qadriyatlarimiz ma'naviy boyligimiz ekanligini anglash;
- oila, mahalla - vatan ichra vatan ekanligini bilish;
- milliy o'yinlar mustahkam sog'liq garovi ekanligini bilish;
- muomala madaniyatiga o'rgatish;
- kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- ehtiyotkorlik, ogohlik va hushyorlik borasidagi ilk tushunchalarni anglash.<sup>10</sup>

### **Ta'lim mazmuni negizini belgilovchi ko'rsatkichlar**

Odobnoma ta'lim sohasidagi belgilangan ko'rsatkichlar uzviy xarakterga ega bo'lganligi sababli 1-2-3 sinflarda olingan bilimlar 4-sinfda keng qamrovli malakalarni egallashga imkon yaratadi.

- salomashish, ko'rishish har bir inson uchun farz ekanligi;
- odob-ahloq tushunchalarining me'yorini bilish;

---

<sup>10</sup> Hasanboyeva O. "Odobnoma 1-4-sinf" o'qituvchilar uchun qo'llanma. "O'zbekiston". Toshkent. 2009 yil. 32-b.

- ma'naviy barkamollikka erishish;
- Mahalla - Vatan ichra Vatan ekanligini anglash;
- tejankorlik mas'uliyatini bilish;
- insonparvarlik fazilatiga erishish;
- vatanni sevish iymondan ekanligini anglash;
- xalqparvar va adolatli bo'lish;
- ilm xosiyatini anglash;
- milliy urf-odatlarimizni bilish va hurmatlash;
- muomala madaniyatini shakllantirish;
- soʻzning inson tarbiyasi va sog'lig'iga ijobiy ta'sirini bilish;
- giyohvandlikning noxush oqibatlarini bilish;
- yaxshi va yomon odatlarni farqlay bilish;
- yurt tinchligi - el tinchligi ekanligini anglash;
- vatan mehrini qalbda saqlash, uning dushmanlariga murosasiz bo'lish,
- vatan istiqboli uchun qayg'urish;
- tariximizni bilish va uni hurmatlash hissini tuyish;
- manmalik va xudbinlik yomon odat ekanligini anglab yetish;
- kamtarlik va oliyhimmatlik yaxshi insonlarga xosligini anglash,
- oynai jahon ko'rsatuvlarini ko'rishda chegarani bilish;
- oila muqaddasligini anglash;
- ota-ona oldidagi burchni his etish;
- huquqiy madaniyat - umumiy madaniyatning ajralmas qismi ekanligini bilish;
- kitobga mehr uyg'otish;
- hushyor va ogoh, ona-Vatanga sadoqatli bo'lish;
- milliy g'ururni anglash va his etish;
- xotira va qadrlash odamiylik fazilatlarini ulug'lash ekanligini bilish;
- ezgulik inson umrining mazmuniga aylanishi kerakligini anglash;
- el shodligi, mamlakat obodligi ekanligini anglash.
- yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda axloqiy fazilatlarga xos atamalar ma'nosini izohlab berish (yaxshi xulqlar: odob, axloq, vatan, burch, vijdon, iymon,

sadoqat, e'tiqod, mehr-muruvvat, kamtarlik, sahiylik, ezgulik, savob, uvol, yaxshilik, insonni qadrlash va hokazo).

Yomon odatlar: (mas'uliyatsizlik, yolg'onchilik, chaqimchilik, baxillik, takabburlik, beparvolik, minnat va hokazo);

### **O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar**

#### **1-sinf:**

#### **O'quv yili davomida 1-sinf o'quvchilari bilishlari lozim:**

- salomashish odobi va uning mazmunini;
- "Assalamu alaykum" so'zining ma'nosini;
- oila, ota-ona qadri va ularni hurmatlash sabablarini;
- yoshlik va qarilik qanday davr ekanligini;
- mehnatni sevish va qadrlash zarurligini;
- "Salomatlik-tuman boylik" tushunchasi va unga amal qilishni;
- dasturxon atrofida o'tirishdan oldin qo'lni yuvib, o'z o'rnida o'tirish, kattalardan oldin taomlarga qo'l uzatmaslik, minnatdorchilik bildirish, duoga qo'l ko'tarishni;
- vatan haqida tushunchaga ega bo'lish, Vatanni asrab, Vatan oldidagi burch nimaligini anglash.;
- Vatanga xiyonat qiluvchi shaxsni tasavvur etish;
- ziyoratgoh nima ekanligini;
- rostgo'y va kamtarlik yaxshi fazilat; chaqimchilik, yolg'onchilik yomon odat ekanligini;
- tabiatni asrashning ma'nosi, suv inson uchun eng aziz ne'mat ekanligini;
- hayvonlarga qanday mehr ko'rsatish, ularga g'amxo'rlik insoniy burch ekanligini;
- milliy va mavsumiy o'yinlarni bilish;
- ilm va hunar nima ekanligini anglash;
- o'z fikrini mustaqil bayon etishda "bu odobdan", "bu odobdan emas"

ekanligini farqlay bilishni.<sup>11</sup>

## **2-sinf:**

### **O'quv yili maboynida 2-sinf o'quvchilari quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari nazarda tutilgan:**

- odobli bo'lishga intilish hissi;
- insoniy fazilatlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj;
- salom-alikning mohiyatini bilish va unga amal qilish;
- mehr va muruvvatli bo'lishning afzalliklarini his etish;
- izzat-hurmat ko'rsata olish uquviga ega bo'lish;
- saramjon-sarishtalikka rioya qilish;
- o'z mulki va davlat mulkiga munosabat;
- savob va gunoh so'zlarining lug'aviy ma'nosini bilish va amaliyotda ularga e'tibor qilish;
- «siz» va «san» so'zlarining farqini bilish, sizlab gapirishni odat qilish; ,. - yaxshilik va yomonlikni farqlash, yaxshilik qilishga o'rganish;
- ajdodlarimiz hayotiga qiziqish bilan qarash, ular ruhini shod etishga o'rganish;
- oilani muqaddas deb bilish, uning sha'nini yuqori ko'rsatishga intilish;
- tejamkorlik fazilatini amaliy o'rganish;
- iltifot ko'rsata bilish;
- xalollikni odat qilish;
- mehnat qadrini bilish, mehnatsevarlikni ulug'lash;
- komil inson tushunchasini farqlash, komillikka intilish;
- vatan va vatanparvarlik uchun kurashish;
- ogohlik sababi nimada ekanligini bilish;
- tabiatga oqilona munosabatda bo'lish mezonlarini o'zlashtirish;
- o'qib, uqib olganlarini hayotga tatbiq qila olish.

## **3-sinf:**

### **O'quv yili davomida 3-sinf o'quvchilari quyidagilarni bilishlari lozim:**

- ona-Vatan tuyg'usi, milliy g'ururni;

---

<sup>11</sup> Hasanboyeva O. "Odobnoma 1-4-sinf" o'qituvchilar uchun qo'llanma. "O'zbekiston". Toshkent. 2009 yil. 50-b.

- mahalla haqidagi tushunchalarni;
- mahallaning namunali, ilg'or, taniqli, el e'zozlagan insonlari hayoti bilan faxrlanishni;

- vatanga xoinlik odobsizlik ekanligini;
- mamlakat hayotidagi buyuk sanalarni;
- vatandagi qadimiy obidalar, mustaqillik davri yodgorliklarini;
- mustaqillik tushunchasini;
- bozor haqidagi tushunchani, sotuvchi va xaridor odobini;
- keksalar oldidagi burchlarini;
- tejamkorlik va isrofgarchilikning farqiga yctishni;
- mehnat inson hayotini bezaydigan omil ekanligini;
- kasb-hunar tushunchalariga munosabat bildirish;
- orastalik, pokizalik me'yorlarini;
- ehtiyotkorlik tushunchasini;
- tabiatni asrash odobini;
- rivoyat va haqiqat;
- muqaddas bobolarimiz va hadis ilmi haqidagi ilk tushunchalarni, hadislariga amal qilishni;

- ulug' bobokalonlarimiz hikmatlarini va ularga amal qilishni;
- o'rganilgan mavzulardan kelib chiqqan holda, ijodiy ishlashni;
- o'zaro ijodiy bahslarga kirisha olishni.

#### **4-sinf:**

**O'quv yili davomida 4-sinf o'quvchilari quyidagilarni o'zlashtirib olgan bo`lishlari lozim:**

- ota-ona mehrini his etishni va unga javoban ota-onaga mehribonchilik qila olishni;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tarixini, mazmunini, hamda uning «Adolat qomusi» ekanligini;
- adolat bilan odolatsizlikni farqlay olish;
- andisha bilan andishasizlikning farqiga borish;

- «Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani»;
- o'zaro hamjihatlik odobini;
- Salomatlik kushandalari (chekish, ichish, nashavandlik) olib keladigan salbiy, oqibatlarni;
- turli diniy oqimlar zarari haqidagi dastlabki tushunchaga ega bo'lish;
- nafs nima ekanligini, nafsni tiyish tartibi va odobini;
- tarixni bilish o'zlikni anglash ekanligini;
- milliy, mumtoz qo'shiqchiligimiz va ulug' san'atkorlar haqida tushunchalarga ega bo'lish;
- musiqa tinglash odobini;
- Axmad Yassaviy, Boborahim Mashrab, Abdulla Avloniy va ularning asarlari haqidagi dastlabki ma'lumotlarni;
- «Vatanni sevish iymondan» iborasi mazmunini anglash;
- o'z fikrini, ijtimoiy voqelikka nisbatan bayon eta olishni;
- "Odobnoma" fani mavzulariga xos bo'lgan quyidagi atamalar ma'nosini anglash: odob, iymon, e'tiqod, did-farosat, vatan, ma'naviyat, ma'rifat, istiqbol, istiqbol, burch, milliy meros, qadriyat, rivoyat, huquq, qonun, ezgulik va hakazolar.
- mavzu yuzasidan ko'tarilayotgan muammoga nisbatan munosabat bildira olishni.<sup>12</sup>

### **1.3. Odobnoma darslarida qo'llanadigan yangi pedagogik texnologiyalar tavsifi.**

Ta'lim mazmunini isloh qilib, uni jahon ta'lim standartlariga muvofiqlashtirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor berilgan. Xususan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida" "O'quv-tarbiyaviy jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash"<sup>13</sup> zarurligi ham alohida ko'rsatib o'tilgan. O'qitishga texnologik yondashuv, ya'ni o'quv jarayonini ham ishlab chiqarish jarayoni kabi takrorlanuvchan xarakterga ega bo'lishini ta'minlashga oid dastlabki izlanishlar XX

<sup>12</sup> Hasanboyeva O. "Odobnoma 1-4-sinf" o'qituvchilar uchun qo'llanma. "O'zbekiston". Toshkent. 2009 yil. 68-b.

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», T., 1997

asrning 50-yillarida amerikalik-pedagog olimlar tomonidan olib borilgan. Xususan, "Ta'lim texnologiyasi" iborasi ham birinchi marta amerikalik olim B. Skinner tomonidan ishlatilgan.

Hozirgi kunda "pedagogik texnologiya" tushunchasiga "yangi", "ilg'or", "progressiv" kabi so'zlarni qo'shib aytilishi ham nisbiy mazmunga ega, bu tushunchaning yagona talqini ishlab chiqilmagan. Hozirgi kunda jahon pedagogikasida "pedagogik texnologiyalar" tushunchasiga turlicha ta'rif berilgan. Xalqaro YUNESKO tashkiloti pedagogik texnologiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi:

“Pedagogik texnologiyalarning tub mohiyati, o'qitishning an'anaviy og'zaki bayon qilish usulidan voz kechib, o'quvchilarni ko'proq mustaqil ta'lim olishga undashdan iborat. Bunda o'qituvchi o'quvchilar bilish faoliyatining boshqaruvchisi, maslahatchisi, yakuniy natijaga yo'llovchi vazifasini bajaradi.”

Pedagogik texnologiya-o'qitish jarayonining o'zaro bog'lik qismlarini tashkiliy jihatidan tartibga keltirish, bosqichlarini ko'rish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni xisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta'minlashdir, yoki pedagogik texnologiya o'qituvchining kasbiy faoliyatini yakunlovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig'indisidir. Texnologiya – o'zining egiluvchanligi, natijalarning turg'unligi, samaradorligi, oldindan loyihalaniish zarurati bilan metodikadan farqlanib turadi. Muammoni g'oyalar, fikrlar bildirish yo'li bilan hal qilish usuli. O'quvchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar, shaxsiy g'oyalarini ilgari suradilar. Asosiy vazifasi muammoni mustaqil tushunish va uni yechishga motivatsiya (qiziqish) uyg'otishdir. O'quvchilarga ma'lum bir muammo qo'yiladi. Barcha ishtirokchilar bu muammo yechimi to'g'risida o'z fikrlarini bildiradilar. Qisqa vaqt ichida bir qancha g'oyalar aytiladi, javoblar qisqa, lo'nda bo'lishi lozim.

Bu usul universal bo'lib darsning barcha etaplarida foydalanilishi mumkin. Aytilgan fikrlar qog'ozda yoki magnitofonga yozib boriladi va eng yaxshi takliflar muloxaza qilinib, muammo yechimi birgalikda tanlanadi. Bu usul fikrlarning bir xilligini yo'qotadi va keng doirada tafakkurlash, muammoni yechishda ijodiy

hamkorlikda ishlash muhitini yaratishga yordam beradi. Og'zaki va yozma usullarda bo'lishi mumkin.

Biz salomlashish mavzusida bu usuldan foydalangan holda dars tashkil qilamiz. Avval salomlashish nima, uning qanday qonun-qoidalari bor degan savollarga javob berib o'tiladi. Chunki, insonlar bir-biri bilan ko'rishar ekanlar, bir-birlarinikiga mehmonga borar ekanlar, muomala munosabatlari salomdan boshlanadi.

Odobning boshi salomdan boshlanadi. Salomlashish – qadimiy odat. Dunyodagi barcha madaniy xalqlar o'zaro insoniy munosabat, muomala va muloqotni salomdan boshlashadi. Har bir xalqning salomlashishi bilan bog'liq bo'lgan o'z urf-odatlarini bor. Hindistonda qo'l kaftlarini birlashtirgancha, peshonalariga tirab, afg'onlar yuzlarini yuzlariga suykagancha kift urishtirib salomlashishsa, inglizlar bosh kiyimini olib yengil ta'zim qilishadi.

Biz o'zbeklar barcha islom dunyosi xalqlari singari bir-birimizni ko'rganda “assalomu alaykum” deya qo'l olishib ko'rishamiz. “assalomu alaykum” iborasi arabcha sizga tinchlik tilayman degan ma'noni bildiradi “Vaalaykum assalom” esa sizga ham tinchlik tilayman javob salomi sanaladi.

Salomlashish odati yosh va marosim bilan bog'liqdir. Masalan, keksa odamlar bir-birlari bilan ikki qo'llab ko'rishishadi. Salom kalomi savob so'ziga o'xshashdir, ma'no jihatdan ham bir-biridan uzoq emas. O'zidan kattalarga salom bermoq bizlar uchun ham qarz, ham farz. Salom berishni kanda qilmaydiganlarni odobli, axloqli; salomsizni odobsiz - tarbiyasiz sanab kelishgan qadimdan ota-bobolarimiz. Salom bergan savob oladi, deyishadi. Chunki salom berish bilan ko'p odamning kayfiyatini ko'tarasiz, hurmatini oshirasiz, chiroyini ochasiz. Alik olganning hayotga muhabbati, insonga ishonchi ortadi, ruhi tetiklashadi. Katta savob ishlar ham mana shu kichik kalomdan boshlanadi. Salom xudoning qarzi deydi keksalar. Salom insoniylikning ham boshi.

O'qituvchi so'ngra bir qancha savollarni o'rta tashlaydi.

1. Salom nima?
2. Salom nimadan boshlanadi?
3. Salomlashishning qanday turlari bor?

4. Salomlashish yoshga bog'liq jarayon sanaladimi? Bu haqdagi shaxsiy fikringiz?
5. Salom qanday hollarda berilmaydi?
6. Salom so'zining savob so'zi bilan aloqadorligi bormi? Bor bo'lsa qanday izohlaysiz?
7. Salom berishni kanda qilmaysizmi?
8. «Assalomu alaykum» so'zining ma'nosi nima?
9. «Vaalaykum assalom» so'zining mazmunini ayting?
- 10.«Assalomu alaykum»ning sehrini namoyon etuvchi ertak, hikoya va hikmatlardan bilasizmi?
- 11.Salom berishdagi axloq va odob qoidalari deganda nimani tushunasiz?

O'qituvchi sinfdagi o'quvchilarni ma'lum guruhlarga bo'lib qo'yadi. Savollarga javob vaqti belgilanadi. Har bir guruh yuqoridagi savollarga tayyorlanish jarayonida har xil usullardan foydalanishlari mumkin.

Boshlang'ich sinflarda odobnoma darslarini tashkil etishda o'qituvchiga maktab, oila, mahalla va keng jamoatchilik yaqindan yordam berishi zarur. Mashg'ulotlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida qiziqarli suhbat, o'yin, bayram, sayohat, sahnalashtirilgan lavhalar kabi shakl va usullarda, turli-tuman rasm, ertak, hikoya, afsona, rivoyat, maqol va topishmoqlardan, audio, videoyozuvlar, xalq pedagogikasi, qadriyatlar va mustaqillik davri ommaviy axborot vositalari materiallaridan unumli foydalangan holda o'tish maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida Navoiy asarlarining tutgan o'rni beqiyosdir. Nafaqat Navoiy asarlarining balki uning hayot yo'li ham o'quvchilar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda, Navoiy shaxsiyatiga to'xtalib o'tishni joiz deb topgan bo'lardim:

Alisher Navoiy turk dunyosi adabiyotining eng mashhur vakilidir. Chunki hech kim bu til ravnaqi uchun uningdek xizmat qilolgan emas.

Navoiy ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak cho'qqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilda bunchalik "ko'p va xo'b" yozmagan edi. Navoiy barcha turkiy xalqlarning eng buyuk shoiridir. Chunki u o'zini "Xitoydan to Xuroson" gacha

yoyilgan turkiy qavmlarning o'z shoiri deb bildi. Alisher Navoiy 1441-yil 9- fevralda Amir Temurning o'g'li Shohruh mirzo shohligi davrida Hirotda tug'ildi. Zamondoshlari uning haqida ko'pincha "Nizomiddin Mir Alisher" deb yozadilar.

"Nizomiddin" – din-diyonat nizomi degani bo'lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, "mir"- amir demakdir. Uning otasi G'iyosiddin Muhammad temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonining ishonchli kishilaridan edi. Onasi amirzoda Shayx Abusaid Changning qizi bo'lgan, ismi ma'lum emas. Alisherning bobosi Temurning o'g'li bilan ko'kaldosh bo'lgan ekan. Buyuk shoir o'z asarlarida bu qutlug' dargohga yaqinligidan iftixor etishini bayon qiladi. Alisher saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o'sdi. Kichiklik chog'idan she'r va musiqaga ishq tushdi. Olimu fozillar davrasida bo'ldi. Uch – to'rt yoshlarida davrining mashhur shoiri Qosim Anvarning bir she'rini yod aytib , mehmonlarni hayratga soldi. Bir yildan so'ng uni maktabga berdilar. U bo'lajak sulton Husayn Bayqaro bilan birga o'qidi. Uning zehni va iqtidori haqidagi gaplar el orasida tarqalib boradi. Keyinchalik u shunday yozadi:

Haq yo'lida kim sanga bir harf o'qitmish ranj ila ,  
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Yuqorida keltirgan hikmatli baytning ma'nosi quyidagicha: kim senga mashaqqat chekib, haq va haqiqat yo'lida bir harf o'rgatgan bo'lsa, uning haqini yuz xazina in'om etish bilan ham ado eta olmaysan.

Alisher Navoiy she'rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazirlik martabasida turib ham she'r yozishni to'xtatmadi. Atrofdagilar uning bu ishiga rag'bat va hurmat bilan qaradilar. Shoh Husayn Bayqaroning o'zi unga rahnamolik qildi. Ulug' shoirning ilk she'riy devonini muhlislari tuzgan bo'lsalar, birinchi devoni "Badoye ul-bidoya"ni shohning amri va istagiga ko'ra o'zi kitob qildi. Ikkinchi devon - "Navodir un nihoya" undan so'ng vujudga keldi. "Tarixi muluku Ajam" asarining asosiy g'oyasi o'tgan shohlarning hayoti, qilgan ishlari orqali zamondoshlariga ibrat va saboq bermoqdir. Navoiy podshoh kishining darvesh xulqi bo'lishini, har qanday holda ham kichik fe'l, kamtarin bo'lib qolishini istaydi. Chunki umr abadiy emas. Dunyoda nimaiki bor bo'lsa, u o'tkinchidir. Birgina narsa boqiy, u

ham bo'lsa, adolatdir. Shuningdek Navoiyning “Tarixi anbiyo va hikmat”, ”Siroj al - muslimin” asarlari ham ibrat va pand mazmunini ko'zda tutgan edi. Hadislar asosidagi qirq ruboiyni o'z ichiga olgan “Arbain” asari ham o'quvchilarga pand-nasihat beradi.

**Mehmondorchilik** ya'ni mehmon kutish va kuzatish odati dunyodagi aksariyat xalqlarga xos xususiyatdir. O'zbek xalqi bu jo'mard odatni juda qadim zamonlardan ixtiyor qilgan. Shuning uchun madaniyatimizning ko'hna manbalarida mehmondorchilik insonning, oilaning, qabila va xalqning odamiylik, sahovat, madaniy va ma'naviy aloqasi-muloqoti mezoni sifatida juda katta qadr bilan tilga olinadi. Sharq xalqlari orasida mashhur bo'lgan Hotami Toyi hikoyati Navoiy bobomizning asarlari orqali bizga ma'lum va mashhurdir. Ularda mehmonga eng so'nggi luqmasigacha saxiylik bilan tutqazgan, oila va qabila sha'nini saqlab olgan ajoyib inson haqida hikoya qilinadi. Xalqimiz eski zamonlardayoq “mehmon otangday ulug'” degan naqlga ko'ra eshikdan kelgan odamni hurmat-ehtirom bilan kutib olib, izzatini joyiga qo'yib, kuzatib qo'yishgan.

Mehmonning mahrini asrag'il jon ichra,

Ne'matin qalin ayla xoni ehson ichra.

Yuqori o'ltururni kim tilasa,

Kishilikdin oni yiroq bilgil.

O'lturur safda yuqoriliqdin,

O'lturur safda yaxshiroq bilgil.

Mehmon kutish odobi haqida o'quvchilarga tushunchalar berishda o'qituvchi darslarning ma'lum bir qismida, masalan, yangi mavzuni mustahkamlash qismida rolli o'yin usulidan foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar: mehmon kutuvchi xonadon egalari va mehmonga boruvchi mehmonlar guruhiga. Shundan so'ng birinchi guruh xonadonga tashrif buyurgan mehmonlarni kutib oladilar, ularning oldilariga dasturxonlar yozadilar, mehmonlarni har xil pishiriqlar bilan mehmon qiladilar hamda ularga juda ham chiroyli muomalada bo'ladilar. Ikkinchi guruh esa mehmonga tashrif buyuradilar, xonadon egalari bilan shirin muomalada bo'ladilar, odob saqlagan holda o'tiradilar.

Ushbu rolli o'yin o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi va rolli o'yinni juda ham yaxshi ijro etadilar. Chunki bolalar kattalar, ota-onalar bilan ko'p marotaba qarindosh-urug'larnikiga mehmonga borishgan. Mehmonga borganlarida kattalarni kuzatishgan.

Bolalar uyda bo'sh qolgan paytlarida bir nechalari to'planib olib "Xola-xola" deb nomlangan o'yinlarni o'ynab turishadi. Bu o'yinni o'ynash ularga katta zavq-shavq bag'ishlaydi. Sinf xonasida o'qituvchi tomonidan ushbu o'yinni o'ynash taklif qilinsa, o'quvchilar bajoni dil rozi bo'ladilar. O'qituvchi o'yinni kuzatib borishi, ularga yo'l-yo'riqlar ko'rsatib borishi va xatolarini o'z vaqtida to'g'rilab borishi lozim.

Yangi pedagogik texnologiyani qo'llashning ahamiyati katta. Hammamizga ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari yangilikka intiluvchan, qiziquvchan, bilim olishga shijoati yuksak darajada bo'ladi.

Odatda, o'qituvchining o'quvchilarga bir xil qolipda dars o'tishi an'anaga aylangan. Endilikda esa o'quvchilarga mustaqil topshiriq berish, darsga mustaqil tayyorgarlik ko'rib kelish, berilgan mavzu yuzasidan erkin fikr bildirishni yangi usulda dars o'tishni asosi deb bilamiz. Noan'anaviy usulda biz o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruhlarga bo'lib dars o'tishimiz mumkin. Bunda har bir o'quvchi bilan yakka tartibda ishlashga imkoniyat bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda dars o'tishda asosan o'yin uslubidan, modulli texnologiyadan fanlararo integratsiyadan foydalanish mumkin. Bu usullarning hammasi ham bolalardan mustaqil ishlashni, o'z fikrini erkin bayon etishni, keng fikrlashni talab etadi. Agar boshlang'ich sinf o'quvchilarini yangi pedagogik texnologiyadan foydalanib o'qitilsa, u holda:

- O'qish darslarida o'rganiladigan mavzuni o'quvchilarga qiziqarli qilib tushuntirish imkoni yaratiladi;
- O'quvchilarning zo'riqishini oldi olinadi;
- O'quvchilarning mustaqil bilim olishiga imkon yaratiladi va ularning mustaqil faoliyati rivojlantiriladi;

- Har bir o'quvchining darsga qiziqish bilan ishtirok etish, o'z fikrini bildirishiga imkon beradi;
- O'quvchilarni og'zaki nutqi rivojlantiriladi;
- Bo'sh o'zlashtirishning oldi olinadi.

O'quvchi faol bo'lishi uchun, avvalo o'qituvchi faolligi talab etiladi. Darhaqiqat faollik – buguning eng muhim tushunchasi. Chunki, Vatanimizning ravnaqi, ta'lim taraqqiyoti ko'p jihatdan o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi bilan chambarchas bog'liq. Afsuski, faollikka daxldor ommaviylik borasid muammolarning borligi sir emas. Qirq daqiqa davom etadigan dars jaaryonida bir og'iz so'zlamaydigan “indamas” o'quvchilar, darslikdan ko'z olmaydigan o'qituvchilar oramizdan ko'plab topiladi.

Dars davomida faollikni ta'minlash uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin.:

**Guruhlarga taqsimlash**<sup>14</sup>: Agar o'qituvchi o'quvchilar erkin fikrlashini xohlasa kichik guruhlarda ishlash texnologiyasidan foydalanshi lozim. Bunda quyidagi usul va vositalarga tayanadi.

O'quvchilar sonini hisobga olgan sinf ikkitadan oltitagacha guruhlarga bo'linadi.

Har bir guruhda to'rttadan oltitagacha a'zo bo'lishi kerak. Guruhga eng faol o'quvchi sardor qilib saylanadi. Har bir guruhga past o'zlashtiruvchi o'quvchilar teng taqsimlanishi lozim.

Guruhlarni yangi mavzuga mos tarzda nomlanadi. Guruhlarni nomlashda guruh a'zolarining fikrlarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan, 2-sinf “Odobnoma” darsligidagi “Go'zal fazilat-inson xusni” bo'limining birinchi mavzusi odob-axloq haqida. Shunga ko'ra guruhlarni “Odob”, “Axloq”, “Go'zal fazilat” deb nomlash mumkin. Guruh a'zolari jamoa nomini she'rlar, fikrlar bilan izohlaydilar. O'qituvchi esa ularni to'ldiradi.

Guruhlarning ko'pligi ish natijalarini topshirish vaqtini cho'zib yuboradi. Guruhda o'quvchilar sonini ko'pligi esa guruh ishida faol ishtirok etish imkonini

---

<sup>14</sup> Abduqudusov O.A. v.b. “Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari” Toshkent, 2011-yil 35-bet

cheklaydi. Shuning uchun o'quvchilarni guruhlariga taqsimlash ishlarini avvaldan rejalashtirish zarur.

Guruhlar tarkibidan doimo boxabar bo'lish, faqat a'lochi o'quvchilardan yoki past o'zlashtiruvchi o'quvchilardan iborat guruh tuzilishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Iloji boricha guruhlar tarkibini tez-tez almashtirgan ma'qul. Buning uchun guruhlariga taqsimlashning qiziqarli usullarini o'ylab topish kerak. Kichik guruhlarda ishlash o'quvchilarni faollashtiradi. Topshiriq yoki savol asosida muammo tanlab olinadi. Berilgan savolga bahsli jihatlar bo'lishi lozim. Kichik guruhlarda ishlayotganda guruh ishtirokchilari o'rtasida vazifalar taqsimlangani ma'qul. Bir o'quvchi munozarani boshlab beradi. Guruhga sardor tanlanadi. Sardor guruh a'zolari ichida eng aqlli, ziyrak bo'lishi kerak. Bu jarayonda o'qituvchi berilgan savollar uchun ajratilgan vaqtga e'tiborli bo'lishi talab etiladi.

Ayni paytda o'quvchi topshiriqni tushunmasa, o'qituvchi guruh oldiga kelishi va topshiriqni tushuntirishi lozim. Guruhlar ishini o'quvchilardan tashkil etilgan ekspert guruhi baholab boradi. Guruhlar ishini yakunlagandan so'ng ekspertlarga so'z beriladi, ular natijalarni e'lon qiladilar.

Kichik guruhlarda ishlashda o'qituvchi quyidagilarga amal qilishi lozim. O'qituvchi kichik guruhlarda ishlash uchun belgilangan vaqtga aniq rioya etadi. Guruhlarga yordam berayotganda o'qituvchi tazyiq o'tkazmaydi. 1-guruh aytgan fikrlar 2-guruh tomonidan muxokamaga toritilishiga ijobiy qaraydi. Zarur bo'lib qolgan o'rinlarda bildirilgan fikrlarga o'qituvchi tomonidan tuzatishlar kiritilishi mumkin.

### **Tezkor savol-javob usuli<sup>15</sup>:**

Mazkur usul o'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilar olgan bilimlarini mustaxkamlash va aniqlashning eng tezkor usuli bo'lib, o'quvchilarni tez va aniq fikrlashga o'rgatiladi, bilimlarni yanada oshirishga undaydi, xotirani charxlaydi, dunyoqarashini kengaytiradi. Undan foydalanishda quyidagilardan foydalaniladi. Tezkor savollar o'qituvchi tomonidan o'tilgan mavzular asosida tuziladi. Javobni o'ylash uchun vaqt berilmasligi avvaldan aytiladi. Savollarga javob berishda vaqtga

---

<sup>15</sup> Abduqudusov O.A. v.b. "Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari" Toshkent, 2011-yil 38-bet.

jiddiy e'tibor beriladi. Guruhlar bilan ishlashda savollarga aloxida e'tibor beriladi. Natijalar o'z vaqtida e'lon qilib boriladi.

Tezkor savollardan namunalar. (4-sinf uchun).

1. Vatan deganda nimani tushunasiz?
2. Davlat ramzlariga nimalar kiradi?
3. Bayrog'imizdagi yashil rang nimani bildiradi?
4. Madhiyamizning muallifi kim?
5. Siz qaysi respublikada yashayapsiz?
6. O'zbekiston qachon mustaqil deb e'lon qilingan?
7. O'zbekistonning poytaxti qaysi shahar?
8. O'zbekistonning davlat tili qaysi til?
9. A. Navoiy kim bo'lgan?
10. Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa nima?
11. Mehmon daganda kimni tushunasiz?
12. Mehmonga borgan odam o'zini qanday tutishi lozim?
13. Mehmon xonadonga birinchi bo'lib qaysi oyog'i bilan qadam qo'tsishi kerak?

#### **“Aqliy hujum” usuli:<sup>16</sup>**

“Aqliy hujum” usuli muammoli darslarni tashkil etishda keng qo'llaniladigan usul hisoblanadi. Bu usul o'quvchilar tasavvurini boyitib, ularni ijodiy faollikka undaydi, muammolarga ko'plab yechimlar o'ylab topishga yordam beradi. “Aqliy hujum” usulini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

- O'quvchilar erkin holatda joylashtiriladi;
- O'rta muammoli savol tashlanadi;
- “Aqliy hujum” usulini o'tkazish qoidalari, tartib, intizomi tushuntiriladi;
- O'quvchilar o'z fikrlarini yozish uchun doska va vatman qog'ozi oldindan tayyorlab qo'yiladi;
- O'quvchilarni erkin fikrlashlari uchun sharoit yaratib beriladi;
- O'quvchilar bildirgan g'oyalar soni, ularning o'ziga xosligi aniqlanadi;
- Bildirilgan g'oyalar soni va sifatiga qarab baholanadi;

---

<sup>16</sup> Abduqudusov O.A. v.b. “Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari” Toshkent, 2011-yil 39-bet

- O'zga guruh a'zolari ustidan kulish, kinoyali sharhlar, mayna qilishga yo'l qo'yilmaydi;

- G'oyalar qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshiligi uqtiriladi;

- G'oyalar takroran aytilmaydi;

- G'olib guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

“Aqliy hujum” usuli uchun tahminan quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

- Mehmonga nima uchun boriladi?

- Mehmonga borganda odam o'zini qanday tutishi kerak?

- Mehmonni qanday kutib olish kerak?

- Mehmonga qanday taomlar qo'yiladi?

- Mehmonga borganda nima uchun qo'l yuviladi?

#### **Zukkolar boshqotirmasi usuli:**<sup>17</sup>

Bu usul o'quvchining fikrini bir joyga jamlashga, xotirasini mustaxkamlashga imkon beradi. Boshqotirma usuli quyidagicha o'tkaziladi:

Boshqotirmani o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'yadi. Boshqotirmani bajarish uchun vaqt belgilanadi va vaqtga qat'iy amal qilinadi. Guruhlarga berilgan boshqotirma so'zlarini miqdor va mazmunan tengligiga e'tibor beriladi. Berilgan boshqotirma javoblari tekshiriladi va g'olib rag'batlantiriladi.

#### **Xotira mashqi usuli:**<sup>18</sup>

Ushbu usul o'quvchilarning xotirasini mustahkamlashga, olingan bilimlarni yodda saqlab qolishga yordam beradi. Bu usul quyidagi tartibda o'tkaziladi:

O'tilgan mavzularga oid tarixiy sanalar o'qituvchi tomonidan oq qog'ozga yoki doskaga yozib, tayyorlab qo'yiladi. O'quvchilar bu tarixiy sanalarda qanday voqealar bo'lganligini yozishlari kerak. Topshiriqni bajarishda belgilangan vaqtga amal qilinadi. Topshiriqni to'liq bajargan o'quvchi yoki guruh g'olib hisoblanadi. Xotira mashqi usulidan foydalanilayotganda tarixiy sanalardan namunalari:

- 1991 yil 1 sentyabr.

- 1336 yil 3 aprel.

<sup>17</sup>Abduqudusov O.A. v.b. “Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari” Toshkent, 2011-yil 41-bet,

<sup>18</sup>Abduqudusov O.A. v.b. “Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari” Toshkent, 2011-yil 41-bet, 42-bet

- 1992 yil 2 iyul
- 1441 yil 9 fevral
- 2006 yil 25 avgust.

### **“Atamlar jangi” usuli:<sup>19</sup>**

Bu usuldan foydalanish uchun ortiqcha tayyorgarlik talab etilmaydi. Shuningdek, bu usulni har qanday dars uchun qo'llash mumkin. O'qituvchi guruhlardan bittadan o'quvchini o'rtaga chiqaradi va ularga fan bilan bog'liq tushunchalar, lug'atlar, atamalar yoki buyuk ajdodlarimiz nomlarini navbatma navbat aytishini, o'zidan oldingi o'quvchining fikrini takrorlamasligini tushuntiradi. Bu usul o'quvchilarni sezgirligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bunda qoidalar quyidagicha bo'ladi;

- Vaqtni belgilab, unga amal qilinadi. Atamalarni to'g'ri ishlatilishiga e'tibor beriladi.
- Musobaqa g'olib aniqlanguncha davom ettiriladi.
- G'olib o'quvchi rag'batlantiriladi. Ularning soniga ko'ra g'olib guruh aniqlanadi.

### **“Nuqtai nazaring bo'lsin” usuli:<sup>20</sup>**

Bu usulda o'quvchilar muayyan muammoga o'z nuqtai nazarlarini asosli dalillab, himoya qilishga o'rganadilar. O'quvchiga muammo muhokamasi vaqtida o'z fikrini o'zgartirish imkonini berishi mumkin. Bu usul o'quvchilar o'rtasida munozara yuzaga kelishi va munozara jarayonida o'zgalar fikrini tinglay olishi, ularga qo'shilish, qo'shilmagan taqdirda o'z fikrini dalillar asosida isbotlab bera olish ko'nikmasini shakllantirish maqsadida qo'llanadi. O'qituvchi savollari bilan dars jarayonida faol bo'lmagan o'quvchilarni munozarada ishtirok etishga majbur qiladi. O'quvchi dastlab sinfning to'rt burchagiga to'rtta so'z yozilgan qog'ozni ilib qo'yadi.

Sinf o'quvchilaridan ko'ngillilari o'zlariga ma'qul kelgan qog'oz oldiga boradilar. Qog'ozga yozilgan so'zlarni o'quvchilar o'z nuqtai nazarlari bilan izohlaydilar. Bunda ularning nuqtai nazarini anglab olish uchun savollar berish

<sup>19</sup> Abduqudusov O.A. v.b. “Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari” Toshkent, 2011-yil 41-bet, 43-bet,

<sup>20</sup> Abduqudusov O.A. v.b. “Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari” Toshkent, 2011-yil, 44-bet

mumkin. Boshqacha fikrda bo'lgan o'quvchilarga so'zlash imkoni beriladi. O'qituvchi bildirilgan fikrlarga qo'shimcha kiritishi, to'ldirishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda ana shunday usullardan foydalanib, dars o'tishi o'quvchilar faolligini oshiradi. Faollikning mazmun mohiyati aslida ijobiy fikrlash, tashabbuskorlikni tashkil etadi.

Bu usullar o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarni rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarini egallashi hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beradi.

## **II bob. 2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug” bo'limini o'rganish**

### **2.1. 2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug” bo'limini o'rganish uslublari**

“Ko'hna tariximizni shu ma'noda ko'z o'ngimizdan o'tkazib, tahlil qiladigan bo'lsak, muhim va ibratli bir fikrni takroran aytishga to'g'ri keladi. Ya'ni, otabobolarimiz ruhiy olamining tomir-ildizlari aynan yuqorida zikr etilgan ma'naviy zaminda, tarixda ham, bugun ham barchaning havasini tortib kelayotgan olijanob fazilatlar asosida shakllangan.<sup>21</sup>”

Muhtaram prezidentimiz aytganlaridek, o'zbek xalqining faqat o'ziga xos olijanob fazilatlari borki, ularni barcha boshqa millat vakillari doimo havas bilan qarab kelishgan. O'zbek millatining eng oliy fazilatlaridan biri muomala madaniyatidir. Oz so'zlash, ma'nili so'zlash, tinglayotgan odamga yoqadigan tarzda so'zlash muomala odobining asosiy mezonidir.

Mehmon kutishu mehmonga borishda muomala madaniyati va muomala odobiga rioya qilish talab etiladi. Shu bois boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehmon kutish va mehmonga borish odobiga o'rgatishda xushmuomalali bo'lishga undash, chiroyli so'zlashga, ma'nili so'zlashga odatlantirish juda ham katta ahamiyatga ega. Qolaversa, o'zini tuta bilish, noo'rin hatti-harakatlar qilmaslik, ochofatlik qilib,

---

<sup>21</sup> I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat – yenilmas kuch”. “Sharq” nashriyoti. T. 1999- yil. 35-bet

dasturxondagi oziq-ovqatlarni pala-partish yeyish, haddan tashqari ko'p yeyish odobsizlik sanaladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehmon kutish odobini o'rgatish orqali biz kelajagimiz bo'lmish yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash, kamtar, xushmuomala, odobli, axloqli, mehnatsevar, sabr-qanoatli, vijdonli kabi insoniy fazilatlarga ko'niktirib boramiz.

Biz bitiruv malakaviy ishimizning navbatdagi qismlarida mehmon kutish, "Mehmon otangday ulug'" iborasining mazmun-mohiyati va ularni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish usullari haqida fikr yuritamiz. Tajriba sinfida olib borgan tajriba-sinov darslarimizdan namunalar keltiramiz.

Ma'nili so'zlay olish, so'zlashish ham madaniyat va odobdandir. Oltin-gavhar va duru javohirning qimmatini uning kamyobligidadir. So'z qadri ham shu kabi miqdori ko'payib ketsa, ta'siri kamayadi. So'zlashish me'yorini bilish va so'zlarni aniq, ravshan tinglovchiga yetkaza olish o'ziga xos san'atdir, Madaniyatli, hayo va iboli kishi oz so'zlashib, soz so'zlashadi. Qadim-qadimdan ota-bobolanmiz bu o'ta muhim ishga katta e'tibor berib, unga amal qilib kelganlar. Bolani tili endi chiqishidan boshlab so'z so'zlashga, uni tiniq, aniq va ravon ifoda etishga o'rgatganlar. Bu ish keyinroq bog'chada va maktabda davom ettiriladi. Bu o'rinda ta'lim-tarbiya maskanlari, ayniqsa, boshlanich sinflar muhim ahamiyat kasb etadi.

Marhum Hojiboy Tojiboyevning bir qiziq gapi bor. Fransuz sarkardasi Napalyonni bolaligida uyqudan uyg'otishda:

-Janob, uyqudan turing, sizni buyuk ishlar kutmoqda,-deb uyg'otishar ekan. Balki bu narsa uning buyuk ishlar qilishida katta rol o'ynagan bo'lishi mumkin. Men, shaxsan, bunday tarbiyada, bunday muomala madaniyatida katta hayot haqiqati bor deb o'ylayman.

Bizning o'zbek xalqida juda ko'p ajoyib va nodir fazilatlar bo'lishi bilan birga o'zi kichkinagina ko'rinsa-da, bolalar ta'lim-tarbiyasida juda katta salbiy ta'siri bo'lgan yomon bir odat borligi, menimcha, achinarli hol.

Biz kattalar bolalarning nutqi ravon bo'lishini, tezroq so'zlay olishini istasakda, ko'p hollarda ularning nutqlarini rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hatti-

harakatlar qilib qo'yayotganimizni bilmay qolamiz. Masalan Napalyonga ko'rsatilgan muomala munosabatini teskarisini qilamiz. Yosh bolalarga, ayniqsa, chaqaloqlarga "kaka yeysanmi", "nanna beraymi", "ana tutu", "ana bobob", "diditga borasanmi" qabilidagi so'zlarni aytamiz. Bolalar chaqaloqligida eshitgan, miyasida saqlab qolgan bunday so'zlarni qachon to'g'ri aytadigan bo'ladilar. Biz o'zimizni chaqaloq qilib ko'rsatish o'rniga chaqaloqlarni katta odamlarday tasavvur qilib, ularga to'g'ri muomalada bo'lmog'imiz lozim.

Chaqaloqligida ota-onasidan so'zlarni noto'g'ri tarzda talaffuz qilishga o'rgangan bola maktabga chiqqanda o'qituvchisining bu rasmdagi nima deb bergan savoliga "bobob", "miyov", "tutu", "ququ" deb javob berishi tabiiy. O'ylab ko'ring, o'qituvchisining: - "Yo'q, bu "miyov" emas, mushuk, bu "bobob" emas, it yoki bu "ququ" emas, tovuq"- degan gapini bola qanday qabul qiladi. Bunga qanday ko'nikadi? Qachon ko'nikadi?

Keling, farzandlarimizning nutqi ravon, chiroyli va mazmunli bo'lishi uchun biz kattalar ularni chaqaloqlik davridan boshlab so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishlariga o'rgataylik.

Odobnoma darslarida "Mehmon otangday ulug'" deb nomlangan bo'limni o'rgatishdan bosh maqsad ham bolalarning nutqini ravon, go'zal va mazmunli bo'lishini ta'minlashdan iboratdir.

Ba'zan mehmonga borib, notanish bir odamning chiroyli, mazmunli va qiroatli gaplariga og'zingiz ochilib qoladi. Eshitgan saringiz, eshitgingiz keladi. Ba'zan esa ko'p gapirib, gapirganda ham bo'lmag'ur gaplarni gapirib, vaqtingizni behuda o'g'irlyadigan kishilarni ko'rib yoqangizni ushlaysiz.

Odobnoma darslarida, darsdan tashqari vaqtlarda og'zaki nutqda oz va soz so'zlashga ahamiyat berish ayni muddaodir.

Bu o'rinda «Oz so'zla, soz so'zla» va «Avval o'yla, so'ngra so'yla» kabi xalq iboralari ma'nosini tushuntirish lozim. Alisher Navoiy bobomiz bu borada nimalarga ahamiyat berganligini ko'rib chiqamiz.

Ko'p demak so'zga mag'rurlik

Va ko'p yemak nafsg'a ma'murlik

Izzat tilasang kam de  
Sihat tilasang kam ye  
Ma'dani inson gavhari so'z durur,  
Gulshani odam samari so'z durur.

Aytar so'zni ayt, aytmas so'z din qayt  
Saxiylik— yaxshi odat, baxillik—yomon illat

Agar “Odobnoma” darsida “Mehmon-mehmon” deb nomlangan sahna ko'rinishidan foydalanilsa, albatta, o'quvchilarga manzur bo'ladi. Chunki bolalar otalari bilan ko'p marotaba mehmonga borishganligi sababli bo'sh vaqtlarida “Mehmon-mehmon” o'yinini o'ynab turishadi. Shu sababli dars vaqtida o'qituvchi tomonidan “Mehmon-mehmon” o'yini o'ynashga taklif etilsa, o'quvchilar bajoni dil o'ynashadi. O'qituvchi faqat o'quvchilar xatolarini to'g'rilab, mehmon kutish qoidalarini o'quvchilarga eslatib turishi lozim.

Masalan, o'qituvchi: Bolalar, mehmonga borganda, uyga birinchi qadamni qo'yishda o'ng oyoq bilan qo'yish kerak. Bo'sh xonaga kirganda ham salom berib kirish kerak. Chunki bu odat ota-bobolarimizdan qolgan.

“Odobnoma” darslarida mehmon kutish haqidagi maqollardan, donishmandlar o'gitlaridan foydalanish samarali natijalar berishi tabiiy.

Mehmonning mahrini asrag'il jon ichra,  
Ne'matin qalin ayla xoni ehson ichra.  
Yuqori o'ltururni kim tilasa,  
Kishilikdin oni yiroq bilgil.  
O'lturur safda yuqoriliqdin,  
O'lturur safda yaxshiroq bilgil

Qadimda ko'pchilik orasida o'zini tuta bilmagan, odob-axloq qoidalariga rioya qilmagan, badxulq kimsalar qattiq jazo olganlar. Zero, inson jamiyatda yashar ekan, turmushda uchraydigan har qanday vaziyatda o'zini qanday tutish kerakligini bilishi va yon-atrofida boshqalar borligini hech qachon unutmasligi lozim.

Odob — odamning jamoat, el-yurt orasida o'zini qanday tutishi, boshqalar bilan qay yo'sinda muomala qilishi, so'z-suxani, o'z turmushi, maishati va bo'sh

vaqtini qanday tashkil etishi, xullas, shaxsning odamiylik xulq-atvori, yurish-turishi, hatti-harakati, tashqi jihatdan, ya'ni shaklan o'zi muloyim, yoqimli bo'lishi lozimligi va ma'qul ekanligi haqida bahs etadi. Odob shaxsning insoniy til-zaboni, muomala muosabati tarzida namoyon bo'ladi.

Odob-axloq qoidalarini tushunish bilan birga uni amalda qo'llashni bilish kerak. Har bir odamning amaliy faoliyati va xulq-atvori uning g'oyaviy va axloqiy e'tiqodiga mos kelishi lozim. Masalan, kishining mehnat faoliyati yaxshi, lekin axloqiy fazilati zaif bo'l-sa, demak hali u odamda odob tarbiyasi mukammallash-gan emas.

Inson, avvalo, o'zining odobi bilan odamlar mehriyosini tortib, obro'-e'tibor topadi. Inson bolasi bir-biridan kiyim-kechagi, libos-anjomi bilan emas, aqli, yaxshi fazilati, muomala-munosabati, ilm-hunari, or-nomusi, xulq-atvori bilan farq qiladi. Shuning uchun ham ota-bobolarimiz qadim-qadimdan yoshlar tarbiyasiga juda katta e'tibor berishgan. Ularning mukammal inson bo'lib yetishuvlari uchun bor imkoniyatlarini ishga solib, kuch-quvvatlarini ayamaganlar va o'z farzandlariga bu odatlarini singdirishga harakat qilganlar.

Haqiqatan ham, har bir ota-ona farzand ko'rish baxtiga muyassar bo'larkan, o'g'ildir, qizdir undan qat'iy nazar, ularni jon pardasida asrab-avaylab mehr bilan parvarish qilishni, qalbiga ezgulik urug'ini sepishni, hunarli, ilmli, mehnatkash, odamlarga g'amxo'r qilib voyaga yetkazishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymog'i lozim. Bu ishlar ota-onadan juda ko'p mehnatu mashaqqat, katta mas'uliyat, tog'dek sabru bardoshini talab qiladi.

Rivoyat qilishlaricha, bir o'smir yigit o'zining odobi, yaxshi xulqi, odamiyligi bilan hammaning havasini keltirarkan. Odamlar bu yigitning ota-onasi yaxshi emasligini, uylaridan doim janjal-suron arimasligini bilganlari uchun, bu qadar aqlu idrokni u qayerdan o'rgangan ekan, deya hayron bo'lar ekanlar.

Bir kuni bir donishmand kishi qo'li-qo'lga tegmay, dastyorchilik qilib yurgan o'smirni yoniga chaqirib, so'rab qolibdi.

— O'g'lim, sizni doim foydali ish bilan shug'ullanib, odamlarning og'irini yengillatish uchun yelgan holda ko'raman. Buning ustiga, doim salomni kanda

qilmasligingiz, keksalarga hurmat-ehtiromingiz beqiyos ekan. Aytingchi, bu adabni qayerdan va kimdan o'rgangansiz? Bola tavoze bilan qo'lini ko'ksiga qo'yib, javob qilibdi:

— Bu adabni beadablardan o'rganganman, taqdir. Dunyoda shunday beadablar ham uchraydiki, ularning qilmishlari etni seskantiradi.

— Barakallo,— debdi donishmand chol,— beadablarga ergashmay, ulardan etak silkib ketishingiz orqasida hali siz ko'p ulug' martabalar sohibi bo'lishingizga imonim komildir.

Demak, oiladagi buzuq tarbiya uning izzat-nafsiga tegib, ulardan tamoman boshqacha bo'lishga intilgan o'smir yigit yomon ishlardan nafratlanish, yaxshi kishilardan ta'lim olishga intilish uchun o'zida yetarli kuch-quvvatga ega ekanki, pirovard natijada, el og'ziga tushib, keksalarning hurmatiga sazovor bo'libdi.

Farzandlarimizning bir qobiqqa o'ralib, tor oila sharoitida, biqiq holda unib-o'sishlari ko'p hollarda ularni odamovi, xudbin, o'z yon-atrofidan nariroqni ko'rolmaydigan, o'z oila a'zolaridan boshqalarni yaqindan bilmaydigan, bir so'z bilan aytganda, hayotning goh alg'ov-dalg'ovli, goh tinch-osoyishta kechinmalaridan bexabar, loqayd kishilarga aylantirib qo'yadi. Bunday bolalarni odam bolasi emas, otasining bolasi, deyishadi. Shuning uchun ham xalqimiz «Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'!» naqlini yaratgan bo'lsa kerak. Bu gaplardan otangning bolasi bo'lma, uni mensima, degan ma'no aslo kelib chiqmasligi kerak. Farzand, eng avvalo, o'z otasini—u kim, qanday xususiyatlarga egaligidan qat'iy nazar, izzat-ikrom qilishi, uning hunarini, ilmini, obro'-e'tiborini qadrlashi ham qarz, ham farzdir. O'z otasi bilan faxrlangan, uning izidan borgan farzand kamol topadi. Bu yerda gap faqat o'z otasinigina emas, barcha otalarning, barcha odamlarning yaxshi ishlarini, pokiza xulq-atvorlarini o'zlariga singdira bilish xususida boryapti. Lekin hamma otalarning ham, hamma odamlarning ham jo'ya-nojo'ya qilmishlarini o'ziga singdirmasdan, faqat ibratomuz tomonlariga ko'proq e'tiborni qaratsalar, yomon xulqli kishilardan boshqacha bo'lishga intilsalar, ya'ni yomonlikdan hazar qilsalar foydadan holi bo'lmaydi. Yuqorida keltirgan rivoyatdagi yomon muhitda tarbiya topgan yigit

hayotda tamoman o'zga yo'ldan borib, e'tibor qozonishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ular el-yurt oldida yaxshi nom qozonadilar.

Boshlang'ich sinflarda odobnoma darslarini tashkil etishda o'qituvchiga maktab, oila, mahalla va keng jamoatchilik yaqindan yordam berishi zarur. Mashg'ulotlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida qiziqarili suhbat, o'yin, bayram, sayohat, sahnalashtirilgan lavhalar kabi shakl va usullarda, turli-tuman rasm, ertak, hikoya, afsona, rivoyat, maqol va topishmoqlardan, audio, videoyozuvlar, xalq pedagogikasi, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va mustaqillik davri ommaviy axborot vositalari materiallaridan unumli foydalangan holda o'tish maqsadga muvofiq.

2-sinf odobnoma darsligining 56 sahifasidan boshlab 63-sahifagacha mehmondo'stlik haqidagi bilim va ko'nikmalarga oid materiallar berilgan. Bo'lim rasm bilan boshlanadi. Rasmda besh kishining bir xonadondagi so'rida o'tirgani tasvirlangan. Ularga yosh bola xizmat qilayotgani ham ifodalangan. Bo'lim ana shu rasmdagi voqealarni izohlash bilan boshlanadi.<sup>22</sup>

Anvarlarning uyiga otasining to'rt nafar do'stlari tashrif buyurishdi. Ular dasturxon atrofida o'tirib, choy ichishmoqda. Anvar uyida pishgan mevalardan uzib, yaxshilab sovuq suvda chayqadi-da, mehmonlarga uzatdi. Mehmonlar Anvarning bu ishidan xursand bo'lishdi. Chunki Anvar kattalarga izzat-ikrom ko'rsatdi.

“Mehmon aziz” she'ri o'qituvchi tomonidan ifodali tarzda o'qib beriladi.

Mehmon kelsa uyimizga,

Quvonamiz hammamiz.

Charchamaymiz, tolmaymiz,

Xizmat qilib barchamiz.

Ushbu yuqorida keltirilgan rasm mazmuniga mos she'rda uyga mehmon kelsa, xonadon a'zolarining xursand bo'lishlari, mehmonlarni hurmat qilib, ularga izzat-ikrom ko'rsatilishi haqida o'quvchilarga tushunchalar beriladi.

Maqol: Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan.

O'qituvchi yuqorida keltirilgan rasm va she'r mazmunidan kelib chiqib, maqol mazmunini tushuntirib beradi.

---

<sup>22</sup> Abdullayeva Q. va b. "Odobnoma" 2-sinf uchun darslik. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent. 2010 -yil. 56-63- betlar

Keyingi darsda “Mehmon qizlar” deb nomlangan matn ustida ishlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehmon kutish odobini o'rgatishga oid qo'llagan usullarimizni quyidagi bir soatlik dars ishlanmasi orqali tushuntirib bermoqchimiz.

**Mavzu: Mehmon qizlar.**<sup>23</sup>

**Darsning maqsadi:** a) o'quvchilarni matn mazmuni bilan tanishtirish, matnni ifodali o'qishga o'rgatish;  
b) o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini, chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirish, lug'at boyliklarini oshirish, tafakkur doirasini kengaytirish;  
s) muomala madaniyatini rivojlantirish, bir-birlariga nisbatan hurmat, izzat ko'rsatish fazilatlarini yuksaltirish.

**Darsning metodi:** noan'anaviy.

**Darsning turi:** yangi bilim berish.

**Darsning jihozi:** darslik, turli xil rasmlar, tarqatma materiallar.

**Darsning borishi:**

### **I. Tashkiliy qism:**

O'quvchilar bilan salomlashaman, davomatni aniqlayman, o'quvchilarni va sinf xonasini darsga tayyorgarligini tekshiraman. O'quv jurnaliga tegishli ma'lumotlar kiritaman.

### **II. Asosiy qism:**

#### **1. Nutq o'stirish daqiqasi:**

O'quvchilarning siyosiy, ahloqiy, madaniy va boshqa fazilatlarini rivojlantirishga bag'ishlangan nutq o'stirish daqiqasini savol-javob tarzida o'tkazaman. O'quvchilarga quyidagi savollarni beraman:

- Toshkent nima uchun non shahri deb ataladi?
- Namanganda o'tkaziladigan “Gullar bayrami”ga boshqa shahar va qishloqlardan ham mehmonlar kelishadimi?
- “Gullar bayrami” Namanganda qachon o'tkaziladi?

---

<sup>23</sup> Abdullayeva Q. va b. "Odobnoma" 2-sinf uchun darslik. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent. 2010 -yil. 57-bet

- Gullarning qaysi turlarini bilasiz? Sanab bering.
- Kimga va qachon gul sovg'a qilinadi?

### **III. Uyga berilgan vazifani tekshirish:**

“Mehmon aziz” she’ri o’quvchilar tomonidan ifodali tarzda o’qiladi. She’r yuzasidan svollar beriladi:

- She’rda nima haqida fikr bildirilgan?
- Nima uchun mehmon kelsa hamma xursand bo’ladi?
- Nima uchun mehmonlarga izzat-ikrom ko’rsatiladi?

### **3.Yangi mavzuning bayoni:**

O’qituvchi matnni ifodali tarzda o’qib beradi.

#### **Mehmon qizlar**

Dilnozani buvijonisi mehmonga olib boradigan boldi.

U darrov yuvinib, sochlarini silliq taradi. O’rib, lenta bilan bog’iadi. Keyin tirnoqlariga qaradi, ular top-toza edi. Dilnoza chiroyli, dazmollangan ko’ylagini kiyib, buvijonisi bilan yo’lga tushdi.

— Ona qizim, mehmonda o’zingni yaxshi tutgin, xo’pmi!—deb tayinladi buvijonisi.

— Xo’p bo’ladi, — deb javob qaytardi Dilnoza.

Dilnoza uyga kirishi bilan uy egalariga salom berdi. Oyoq kiyimini bir chekkaga yechdi. Buvijonisining kavushlarini ham chetroqqa olib qo’ydi. Shu xonadonda Dilnoza tengi qizlar ham bor ekan.

— Mehmon-mehmon o’ynaymiz, — dedi mezbon qiz.


Yo’q, do’xtir-do’xtir o’ynaymiz,— dedi uning singlisi.

— Qattiq gapirmaylik, —dedi Dilnoza kattalar tomonga sekin qarab qo’yib.

Qizlar sekingina qo’shni xonaga kirib ketishdi.

Mehmonga yozilgan dasturxon uchun buvijonisi mezbonlarga minnatdorchilik bildirdi.

...Bu orada Dilnoza mezbon qizlar bilan ularning ayasiga ham yordamlashdi. Yuvilgan idishlarni artib turdi.



**Mehmonlar bilan qiziqarli o'yinlar  
o'ynash qanday maroqli**

Mehmonlar ketishga otlanayotganda, mezbon aya dedilar:

— Nevarangiz Dilnozaoy menga juda ham yoqdi. Yana kelganingizda, albatta, uni ham birga olib keling.

— Xo'p bo'ladi, — dedi buvisi.

Dilnoza bu maqtovdan juda xursand bo'ldi.

**4. Lug'at ustida ishlash:**

- mehmonda o'zingni yaxshi tutgin
- qattiq gapirmaylik
- minnatdorchilik bildirdi

**5. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

O'quvchilarga matn yuzasidan savollar beraman:

**Savollar:**

1. Dilnoza mehmonda o'zini qanday tutdi?
2. Mehmon bo'lgach, uy egalariga nimalar deyish kerak?

**Topshiriq:**

Siz ham mehmonga borganingizni gapirib bering.

## **2.2. 2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug” bo’limini o’rganishda noan’anaviy dars usullaridan foydalanish**

2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug” bo’limini o’rganishning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati nihoyatda beqiyos. Chunki inson bir-birinikiga mehmonga borar ekan, mehmonga borgan odamdan ham, mehmon kutgan va kuzatgan odamdan ham chin insoniy fazilatlarga rioya qilish talab etiladi. Mehmon kutish va mehmonga borish, avvalo insonlar orasida o’zaro mehr-oqibatning, bir-birga bo’lgan hurmat-ehtiroمنىng rivojlanishiga olib keladi.

Qadim-qadimdan o’zbek xalqi kekxa va qariyalar, yakka-yolg’iz yashaydigan, nogiron, yetim-yesir, faqir, kam ta’minlangan, moddiy yordamga muhtoj kishilarning, qarindosh-urug’larining, mahalladosh yoki hamqishloqdoshlarining holidan xabar olishdek eng boy milliy qadriyatlari va an’analari avloddan avlodga o’tib sayqallashib bormoqda. Bir-birining holidan xabar olish, o’ksik ko’nglini ko’tarish, moddiy va ma’naviy yordam berish kabi sahiylik, xotamtoylik fazilatlar o’zbek xalqiga xos xususiyatlardan hisoblanadi. O’zbek xalqi mehmondo’st xalq sifatida butun dunyoga tanilgan. O’zbek xalqining har qanday fuqarosi agar haftada bir marta bo’lsa-da uyiga mehmon kelmasa, o’zini noqulay his qiladi. Mehmon kutishdan, mehmon kuzatishdan olam-olam zavq-shavq oladi.

Shu o’rinda otam aytib bergan bir voqea yodimga tushdi deydi p.f.d.prof., O.Xasanboyeva. Otamning Norin tumanida yuqori tashkilotlardan birida rahbar lavozimida ishlaydigan bir do’sti bo’lgan ekan. U shunaqangi mehmondo’st odam ekanki, uning uyiga xohlagan vaqtda tashrif buyursangiz 15-20 daqiqadan so’ng yangi, issiqqina palov damlab, suzib kelib, dasturxonga tortar ekan. Bir necha o’rtoqlari sinash maqsadida bir kun soat ertalabki 9 larda, bir kuni asrdan keyin va yana bir kuni kech soat 22 larda tasodifan mehmonga kelganday atayin tashrif buyuribdilar. Har safar 15-20 daqiqadan so’ng issiqqina palov dasturxonga tortilibdi. Bu holatning sirini so’rab-surishtirishsa, ushbu insonning oshxonasida bitta qozonda bir kilogramlik palov masalliq-lari pishirilib, gurunch solishga tayyorlab qo’yilar ekan. Agar mehmonlar kelib qolish ehtimoli haqidagi xabar uyga yetkazilsa, istalgan miqdordagi gurunch issiq suvda yuvilib, qozonga solishga tayyorlab qo’yilar va

mehmonlar kelishi bilan damlanar ekan. Mehmonlar ketishi bilan yana o'shancha masalliq qovurilib, palov damlash uchun hozirlab qo'yilar ekan. Qoyil qolish kerak. O'ylab qolaman, nahotki o'zbek xalqi shunchalik mehmondo'st xalq. Bu, albatta, o'zbek xalqiga mansub bo'lgan har bir insonda milliy g'uruni shakllantiradi qalbini fahr-iftihorga to'ldiradi<sup>24</sup>.

Mehmondo'stlik insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, bir-biriga bo'lgan mehr-oqibatini oshiradi, insoniylik fazilatlarini shakllantiradi va uni rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga odobnoma darslari orqali mehmondo'stlik fazilatlarini singdirish natijasida biz o'quvchilardagi quyidagi:

- Odobli inson bo'lib yetishish;
- Ahloqiy jihatdan komil inson bo'lib voyaga yetishlik;
- Kamtarlik;
- Rostgo'ylik;
- To'g'ri so'zlik;
- Vijdonlilik;
- Oq ko'ngillik;
- Sahiylik;
- Xushmuomalalik;
- Qalbi kenglik;
- Mehribonlik;
- Jonkuyarlik;
- Kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lishlik;
- Har qanday holatda o'zini tuta olishlik;
- Vatanparvarlik;
- Vatan ravnaqiga munosib hissa qo'sha olishlik;
- Vatan koriga yarashlik;
- Xalqparvarlik;
- Mehr-oqibatlilik

---

<sup>24</sup>O.Xasanboyeva. "Mehmonnavoz o'zbeklar" Xalq ta'limi jurnali 1992 yil 5-son

- Tinchliksevarlik kabi inson ziynati bo'lmish eng oliy fazilatlarni shakllantirish va uni rivojlantirishga erishishimiz mumkin.

Hasis odam hech qachon mehmon kutmaydi. Mehmon kutishni xushlamaydi va o'zi ham odamovi bo'lib, mehmonga ham bormaydi. Mehmon kutish uchun sahiy, tanti, hotamtoy bo'lish talab etiladi. O'zbek xalqida shunday odat bor: "o'zi yemasada, birovga yediradi." Mehmon kutgan odam hech qachon mehmonini hafa qilib jo'natmaydi. Mehmonga hurmat, izzat-ikrom ko'rsatib, kuzatib qo'yar ekan: "Hafa bo'lmay keting," deydi. O'zi yemagan narsasini mehmonga yedirib, yana hafa bo'lmay keting iborasini ishlatishni qanday tushunish mumkin. Bu eng olijanob fazilat emasmi?

Mehmon kutgan odam xushmuomala bo'lishi talab etiladi. Mehmonni tabassum bilan iliq kutib olish, shirin so'zlar aytish, ko'nglini ko'tarish mehmondo'stlikning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bu, albatta, kishilarni xushmuomalalilikka, muomala madaniyatiga ega bo'lishga, shirinsuxanlikka undaydi.

Mehmon kutgandan ham, mehmonga borgandan ham odob saqlash talab etiladi. Mehmonga borgan odam mehmon kutuvchi bilan qo'pol muomalada bo'lmasligi, noo'rin so'zlar aytmaligi, dasturxonga yotib olib, ovqat yemasligi, ochko'zlik qilmasligi lozim. Mehmon kutgan esa mehmonga nisbatan xushmuomalalik qilgan holda qo'pol yoki balad ohangda gapirmasligi. Oila a'olari bilan janjallashmasligi lozim bo'ladi.

Bir xasis odamning uyiga tasodifan mehmon kelib qolibdi. Bundan xasis odamning jahli chiqibdi. "O'zi yeyishga hech vaqoyim yo'q bo'lsa, nega mening uyimga mehmon keladi, ko'zim uchib turganmidi,<sup>25</sup>" - xayolidan o'tkazibdi xasis odam. mehmonni tezroq ketkazib yuborish maqsadida xotini bilan urishib ketibdi. O'zini noqulay his qilgan mehmon mezbondan uzr so'rab chiqib ketibdi.

Yuqorida keltirilgan hikoyadan o'quvchilar to'g'ri xulosa chiqarishlari va ketgunga qadar hech qaysi oila a'olari bilan janjallashmasligi kerak bo'ladi.

---

<sup>25</sup> <http://www.referat.uz/> - "Mehmondo'stlik odobi"

Qissadan hissa shuki, mehmon kim bo'lishidan, qaysi millat vakili bo'lishidan, qaysi dinga e'tiqod qilishidan qat'iy nazar hurmat qilinishi, izzat-ikrom ko'rsatilishi shart.

O'zbek xalqining mehmon kutishdagi yana bir xususiyatini milliy qadriyatlar qatoriga qo'shish mumkin. Ko'plab o'zbek xonadonlarida shirinliklar idishlarga solinib, maxsus shkaflarda, keksalar yashaydigan xonadonlarda maxsus sandiqlarda tayyor holda saqlanadi. Buni mehmon kelib qolganda shoshib qolmaslik, mehmonni kuttirib qo'ymaslik maqsadida qilinadi. Bunday odat mehmonga bo'lgan hurmat, izzat-ikrom nishonasi yoki belgisi hisoblanadi.

Mehmon kutishda yana bir qiziq odatimiz mavjud. Mehmon kelgach, uning oldiga dasturxon yoziladi. Dasturxonga birinchi bo'lib non qo'yiladi. Hech bir xonadonda nondan oldin choy yoki piyola va yo boshqa narsa qo'yilmaydi. Mehmonni non bilan kutib olish – rizq-ro'z bilan kutib olish demakdir. Mehmonning rizqi baland ekanligini ifodalash belgisidir. Chet eldan kelgan martabali mehmonlarni ham non va tuz bilan kutib olish, nafaqat bizning millatda, balki boshqa millat vakillarida ham uchraydi.

O'zbek xalqida mehmonga borishda quruq qo'l bilan borish odobsizlik sanaladi. Mehmonga borgan odam non, shirinliklar yoki meva-chevalar olib borishi odatga aylangan. Bu odat mezbonlarga nisbatan hurmat, izzat-ikrom sanalish bilan birga ularni noqulay holatga tushib qolishlaridan, mehmon kutishga tayyorgarligi bo'lmagan mezbonlarni shoshib, gangib qolishlaridan asraydi ham.

O'zbek xalqining o'tkazadigan to'ylari haqida uzoq va ko'p gapirish mumkin. Millatimizning to'ylari ko'plab boshqa millat to'ylari kabi bir kunda o'tmaydi. To'ylar kamida ikki-uch kun davom etadi va bir necha yuzlab, hatto minglab mehmonlar kuzatiladi. O'zbek xalqi bir necha yillar misqollab yiqqanini shu ikki-uch kun ichida mehmonlar oldiga sochadi. Hatto ketayotgan mehmon ayollarning tuguniga "Nasiba" deb non va shirinliklar tugib ham beradi.

Agar to'y yoki yo'riq-yo'singa biror bir aytilgan, keksa odammi, mehmonmi, qo'ni-qo'shnimi betoblighi sababli chiqmay qolsa, albatta, uning uyiga biror bir kosada ovqat, non va shirinliklar chiqarib yuboriladi. Bu ham, albatta, o'zbek

xalqining eng ajoyib xusuiyati deymizmi, odatlaridan biri deymizmi, qisqasi mehmon kutishda o'zbek xalqi boy qadriyatlarga ega.

“Mehmon otangday ulug’,”- deydi dono xalqimiz. O'zbek xalqi o'z otasini juda ham qattiq ulug'laydi, hurmat qiladi, izzat-ikrom ko'rsatadi. Ammo mehmonni otasidan ham ko'proq ulug'laydi. Bu odat o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan.

Mehmon kutgan, mehmonga borgan insonlar bir-birlarini hurmatini joyiga qo'yadigan, bir-birini e'zozlaydigan, bir-biriga izzat-ikrom ko'rsatadigan fazilatlarga ega bo'ladilar. Bunday insonlar faqat ezgu ish va amallar bilan shug'ullanishni sevadilar. Ularning qo'lidan yomonlik kelmaydi. Ular boshqalarga faqat yaxshilikni ravo ko'radilar.

“Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiyluk bilan kurasha olishi mumkin.<sup>26</sup>”

Muhtaram prezidentimizning ushbu fikrlari har qanday murabbiyning yoshlar tarbiyasidagi mas'uliyatini yanada oshiradi.

Mehmon kutish bilan bog'liq yuqorida tilga olingan urf-odatlar, rasm-rusmlar va mehmon kutish odoblari kabi yuksak qadriyat-u fazilatlarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatish, ularning ongiga singdirish orqali biz kelajagimiz bo'lmish yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashga katta hissa qo'shgan bo'lamiz. Keling yosh avlodni tarbiyalashga biz ham o'zimizning munosib hissamizni qo'shaylik. Balki mening ushbu bitiruv malakaviy ishim O'zbekistonning kelajagi bo'lmish yoshlarga mehmon kutish odobini o'rgatishda ma'lum bir ma'noda sizga yordam berar. Agar shunday bo'lsa, men o'zimni dunyodagi eng baxtiyor inson hisoblar edim.

“Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxt-u saodat faqat boylik, mol-u mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli,

---

<sup>26</sup> Karimov. I.A. “Yuksak ma'naviyat – yenilmas kuch”. “Sharq” nashriyoti. T. 1999- yil. 16-bet

mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir<sup>27</sup>”

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini siyosiy va ma'naviy bilimlarini oshirib borish, ularning ongiga Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarini singdirib borish kelajagimiz bo'lmish yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Shu sababli dars jarayonlarida, ayniqsa, “Mehmon otangday ulug'” bo'limini o'rganishda o'quvchilarning yoshi, saviyasi va bilimlarni qabul qilish darajalarini hisobga olgan holda Prezident asarlarini o'quvchilarga o'rgatib bordim.

Prezidentimiz I.A.Karimovning Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi, mamlakatda tinchlik-osoyishtalikni saqlash, Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz O'zbekiston sharoitida, uni bartaraf etish choralari va yo'llari, “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” kabi asarlarida turli xil masalalarda bildirgan fikrlarini hamda bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida muntazam tushunchalar berib bordim. Ayniqsa, Vatanimiz taraqqiyoti, yurtimiz obodonligi yo'lida viloyatimiz shahar va qishloqlarida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari, qurilayotgan ko'priklar, yo'llar, ko'p qavatli binolar, o'quv maskanlari, shifoxonalar hamda mahalla guzarlari misolida gapirib berdim va ularning siyosiy bilimlarini hamda axloqiy va ma'naviy dunyoqarashlarini kengaytirib bordim. Yurtimizda olib borilayotgan bunday bunyodkorlik ishlariga har bir O'zbekiston fuqarosi o'zining munosib hissasini qo'shmog'i lozim. Maktab o'quvchilari esa, o'zlarining "a'lo" va "yaxshi" baholarga o'qishligi, qolaversa, o'z uyi va maktabini ozoda tutishligi, maktab jihozlarini asrab-avaylashi bilan hissa qo'shishi mumkinligi haqida gapirib berdim. Natijada o'quvchilarning Vatanga bo'lgan mehr-muhabatlari yanada rivojlandi.

2-sinf “Odobnoma” darsida o'quvchilarga prezident asarlarini o'rgatishga oid metodik tavsiyalarimni quyidagi bir soatlik dars ishlanmasi orqali yoritib beraman.

2-sinfda odobnoma darsi

Mavzu: Mehmonda

---

<sup>27</sup> Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. “Sharq” nashriyoti. T. 1999- yil. 56-bet

**Darsning maqsadi:** a) o'quvchilarni matn mazmuni bilan tanishtirish, matnни qayta hikoya qilishga o'rgatish;

b) o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish, lug'aviy boyliklarini oshirish, fikrlash doirasini va dunyoqarashlarini kengaytirish;

s) o'quvchilarning siyosiy va ma'naviy bilimlarini yanada boyitish, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatlarini rivojlantirish.

**Darsning metodi:** Noan'anaviy

**Darsning jihozi:** Prezident portreti, uning asarlari, darslik, tarqatma materiallar, turli xil rasmlar.

**Dars turi:** Yangi bilim berish.

### **Darsning borishi:**

#### **I. Tashkiliy qism:**

O'quvchilar bilan salomlashaman, davomatni aniqlayman, o'quv jurnaliga uni qayd etaman, mavzuni, o'tilgan kun sanasini yozib, imzo chekaman. O'quvchilar va sinf xonasini darsga tayyorligini tekshiraman.

#### **II. Asosiy qism:**

1. Nutq o'stirish daqiqasi:

O'quvchilarnig diqqat-e'tiborini sinfda tashkil etilgan "Prezident asarlarini o'rganamiz" deb nomlangan burchakka qarataman. Ushbu burchakda stol qo'yilgan bo'lib, unda prezident portreti va uning asarlari qo'yilgan. O'quvchilarga quyidagicha savollar beraman va savollarga javoblarini tinglayman.

1. Ushbu suratda kim tasvirlangan?
2. Prezidentimizning qanday asarlarini bilasiz?
3. Viloyatimizda qanday bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda?
4. Davlatimiz bayrog'ida qanday ranglar bor?
5. O'zbekiston mustaqillikka qachon erishgan?
6. Mehmon kutish odobini bilasizmi?

Shu va shunga o'xshash savollar beraman. O'quvchilarning javoblarini eshitaman, nutqlaridagi xatolarni o'z vaqtida to'g'rilab boraman. Javoblarini to'ldiraman, xulosalayman.

1. Uyga berilgan vazifani tekshirish.

Uyga "Mehmon qizlar" she'ri berilgan edi. Matnni ifodali tarzda o'qib berishlarini o'quvchilardan so'raymiz.

"Mehmon qizlar"

Mehmon kelsa uyimizga

Quvonamiz hammamiz

Charchamaymiz, tolmaymiz,

Xizmat qilib barchamiz

O'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilaman:

- Nima uchun uyimizga mehmon kelsa suyunamiz?
- Mehmon nima uchun aziz deyiladi?
- Nima uchun mehmonga izzat-ikrom ko'rsatiladi?

Ushbu savollarga o'quvchilar javoblarini tinglashdan oldin sinf o'quvchilarini uch kichik guruhga bo'lib olaman. Kichik guruhlarni a'zolarining fikr-mulohazalari va takliflarini inobatga olib nomlab olaman. Masalan, "Lola", "Kamalak", "Binafsha". Ushbu guruh nomlarini doskaning yuqori chekka qismiga yozib, ostiga ballar qo'yib borish uchun kataklar chizaman. O'quvchilarni "Kim tez bajaradi" deb nomlangan qiziqarli musobaqa-o'yin o'ynashga taklif etaman. Uchta savolni konvertga solib har bir kichik guruhdan bittadan o'quvchi doskaga chiqarib, konvertdagi savollarga javob berishlarini so'rayman. O'quvchilarni o'yin boshida uning sharti bilan tanishtiraman va ushbu savollarga bildirilgan javoblar asosida qaysi komanda chiroyli matn tuzishini so'rayman va qiziqarli o'yin o'ynashga taklif etaman. Bir vaqtda musobaqani boshlash uchun ishora qilaman

O'quvchilarni o'yinni to'g'ri bajarishlariga e'tibor beraman. Savollarga javob berish o'yini bajarib bo'linganidan so'ng matnni ifodali o'qib berishlarini so'rayman. Ularning nutqiga e'tibor beraman va nuqtalardagi xato va kamchiliklarni o'z vaqtida to'g'rilab boraman. Ushbu savollarga bergan javoblarini va boshqa o'quvchiga

qaraganda ertaroq yoki kechroq bajarganliklarini hisobga olib ballar qo'yaman. Qo'yilgan ballarni izohlayman va doskadagi jamoa nomlari ostiga e'lon qilingan ballarni yozib qo'yaman. So'ng o'yinga yakun yasab g'olib jamoani aniqlayman.

## **2. Yangi mavzuning bayoni:**

### **3. Mavzu: Mehmonda**

Dilnozani buvijonisi mehmonga olib boradigan bo'ldi

U darrov yuvilib, sochlarini silliq taradi. O'rib, lenta bilan bog'iadi. Keyin tirnoqlariga qaradi, ular top-toza edi. Dilnoza chiroyli, dazmollangan ko'ylagini kiyib, buvijonisi bilan yo'lga tushdi.

— Ona qizim, mehmonda o'zingni yaxshi tutgin, xo'pmi!—deb tayinladi buvijonisi.

— Xo'p bo'ladi, — deb javob qaytardi Dilnoza.

Dilnoza uyga kirishi bilan uy egalariga salom berdi. Oyoq kiyimini bir chekkaga yechdi. Buvijonisining kavushlarini ham chetroqqa olib qo'ydi. Shu xonadonda Dilnoza tengi qizlar ham bor ekan.

— Mehmon-mehmon o'ynaymiz, — dedi mezbon qiz.

— Yo'q, do'xtir-do'xtir o'ynaymiz,— dedi uning singlisi.

— Qattiq gapirmaylik, -dedi Dilnoza kattalar tomonga sekin qarab qo'yib.

Qizlar sekingina qo'shni xonaga kirib ketishdi.

Mehmonga yozilgan dasturxon uchun buvijonisi mezbonlarga minnatdorchilik bildirdi.

...Bu orada Dilnoza mezbon qizlar bilan ularning ayasiga ham yordamlashdi. Yuvilgan idishlarni artib turdi.

Mehmonlar ketishga o'tlanayotganda, mezbon aya dedilar:

— Nevarangiz Dilnozaoy menga juda ham yoqdi. Yana kelganingizda, albatta, uni ham birga olib keling.

— Xo'p bo'ladi, — dedi buvisi.

Dilnoza bu maqtovdan juda xursand bo'ldi.

Matni ifodali qilib o'qib beraman. So'ng matndagi o'quvchilar uchun

tushunish qiyin bo'lgan quyidagi so'zlarni doskaga yozib lug'at ishi o'tkazaman:

- Kavush
- Qattiq gapimoq
- minnatdorchilik bildirmoq
- Ketishga otlanmoq

Ushbu so'zlarning mazmun-mohiyatini o'quvchilarga tushuntiraman, ular ishtirokida so'z birikmalari va gap tuzaman. Ushbu so'zlarga oid lug'at ishini daftarda bajartiraman. Shundan so'ng matnni o'quvchilarga o'qittiraman. O'quvchilar matnni o'qiyotganlarida diqqat bilan tinglayman, ularning talaffuzdagi xato va kamchiliklarini o'z vaqtida to'g'rilab boraman.

### **3. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

O'quvchilarga matn yuzasidan savollar beraman:

1. Dilnoza mehmonda o'zini qanday tutdi?
2. Mehmonga borgach, uy egalariga nimalar deyish kerak?

### **Topshiriq:**

Siz ham mehmonga borganingizni gapirib bering.

O'quvchilarning savollarga bergan javoblarini diqqat bilan tinglayman, ularning talaffuzdagi xato va kamchiliklarini o'z vaqtida to'g'rilab boraman.

Shundan so'ng o'quvchilarga "Mehmonga borish" deb nomlangan qiziqarli o'yin o'ynashga taklif etaman. Ikki-uch o'quvchilar mezbon, yana ikki-uch o'quvchilar mehmon rollarini ijro etishadi. Mehmonlar sahnaga kirib kelishadi:

- Holajon!

Ichkaridan "Labbay" degan ovoz keladi. Mezbon rolini ijro etayotgan qizlar sahnaga chiqib kelib, mehmonlarni izzat-ikrom ko'rsatib kutib oladilar. Mehmonlarni o'tqizishadi, oldilariga dasturxon yozishadi. Mezbonlar: "Yaxshi keldingizmi?", "Qiynalmay keldingizmi?" kabi savollar berishsa, mehmonlar: "Yo'q, rahmat, yaxshi keldik", "Qiynalmay keldik", "Ovora bo'lavermang", "Sizlar ham o'tiringlar" kabi javob va uy egasiga hurmat ma'nosini ifodalovchi gaplar aytishadi.

### **5. O'quvchilar bilimni baholash:**

O'tkazilgan musobaqa tarzidagi qiziqarli o'yinlarda g'olib chiqqan jamoa a'zolarini darsda faol ishtirok etganliklari va g'alaba qozonishgani uchun o'z minnatdorchiligini bildiraman. Imkon qadar har bir jamoa a'zosining hatti-harakati va javoblarini sharxlab o'taman hamda quyilgan baholarni izohlayman. Shu tarzda qolgan ikki jamoa a'zolarini ham faol ishtiroklarini e'tirof etaman va kelgusi musobaqalarda g'alaba qozonishlarini tilayman. Ularga ham qo'yilgan baholarni izohlab beraman.

Uyga vazifa berish: Doskaning yuqori o'ng burchagiga uy vazifasini yozib qo'yaman va qanday bajarishni o'quvchilarga tushuntirib beraman. Vazifa sharti: Matnni ifodali o'qish.

### **Tajriba-sinov ishlari**

Biz tajriba-sinov jarayonining boshida, o'rtasida va oxirida boshlang'ich sinf o'quvchilarining "Mehmon otangday ulug'" bo'limi yuzasidan egallagan bilim va ko'nikmalarining shakllanishi hamda o'sib borishini og'zaki savol-javob, tarzida aniqlash usullari orqali tekshirib, nazoratdan o'tkazib bordik.

Tajriba-sinov o'tkazishdan oldingi har ikkala sinf o'quvchilarining ko'rsatkichlari tajriba-sinov o'rtasiga borib tajriba-sinov o'tkazayotgan 2-<sup>A</sup> sinf o'quvchilarida o'sib borayotganini, ularda ro'y berayotgan o'zgarishlarni, rivojlanib borayotgan qobiliyatlarini va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ko'rib, bu borada olib borayotgan ishlarimizni sidqidildan davom ettira boshladik. Tajriba- sinov yakuniga borib nazoratga olgan 2-<sup>B</sup> sinf o'quvchilariga qaraganda tajriba- sinov ishlarini olib borayotgan 2-<sup>A</sup> sinf o'quvchilarida juda katta o'zgarishlar ro'y berganining guvohi bo'ldik. Tajriba-sinov yakunida quyidagi samarali natijalarga erishdik:

1. O'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatlari ijobiy tomonga o'zgardi.
2. Odobnoma faniga yanada qiziqishlari ortdi;
3. Sinf o'quvchilarining davomati yaxshilandi;
4. O'quvchilarning fanni o'zlashtirish ko'rsatkichlari oshdi;
5. Darsda qiziqarli o'yinlar o'ynashga qiziqishlari ortdi;
6. Qoniqarsiz bahoga o'qiydigan o'quvchilar soni keskin kamaydi;

7. Yaxshi va a`lo baholarga o`qiydigan o`quvchilar soni oshdi;
8. Darsda erkin harakat qilishga o`rgandilar;
9. Mustaqil fikrlash, fikrni ifodalay olish qobiliyatlari shakllandi;
10. Mustaqil tasvirlash, qayta hikoya qilish xususiyatlari rivojlandi;
11. Odob-axloq haqidagi tushunchalari rivojlandi;
12. Sharqona odob-axloqqa ega bo`lishga bo`lgan munosabatlari oshdi;
13. O`zlarining axloqiy fazilatlariga tanqidiy yondashish xususiyatlari shakllantirildi.

Tajriba – sinov ishlarida tajriba sinfi hamda nazorat sinflari o`quvchilarining faoliyatlarini bir –biriga taqqoslab, tajriba-sinov natijasida erishilgan yutuqlarni quyidagicha shkalalarda e`tiboringizga havola qilamiz:

1. O`quvchilar davomati

Tajriba davri Sinflar	Tajribadan oldin	Tajribadan so`ng
2 <sup>-A</sup> -sinf	94%	96%
2 <sup>-B</sup> sinf	92%	93%

Ko`rinib turibdiki, tajriba o`tkazayotgan sinfimizda tajriba o`tkazishdan oldin o`quvchilar davomoti 94% ni tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng davomoat 96% ga ko`tarilgan. Nazorat sinfida esa o`quvchilar davomati 1%ga o`zgargan.

2. O`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari quyidagicha ko`rinishga ega bo`ldi:


Tajribadan oldin:

O`zlashtirish ko`rsatkichlari	Jami o`quvchi	a`lo	yaxshi	o`rta	qoniqarsiz
2A –sinf	32	6	14	10	2
2B –sinf	30	5	13	10	2

## TAJRIBADAN OLDINGI NATIJA

2<sup>"A"</sup>-sinf tajriba sinf

2<sup>"B"</sup>-sinf nazorat sinf



TAJRIBA SINIF	NAZORAT SINIF
5 baho – 6 ta - 17 %	5 baho – 5 ta - 17 %
4 baho – 14 ta – 39 %	4 baho – 13 ta - 43 %
3 baho – 10 ta - 28 %	3 baho – 10 ta - 33 %
2 baho – 2 ta - 6 %	2 baho – 2 ta - 7 %


Tajribadan so`ng:

O`zlashtirish ko`rsatkichlari	Jami o`quvchi	a`lo	yaxshi	o`rta	qoniqarsiz
<b>2A –sinf</b>	32	10	13	8	1
<b>2B –sinf</b>	30	8	12	8	2

## TAJRIBADAN KEYINGI NATIJA

2<sup>A</sup>-sinf tajriba sinf

2<sup>B</sup>-sinf nazorat sinf



TAJRIBA SINIF	NAZORAT SINIF
5 baho – 10 ta - 30 %	5 baho – 8 ta - 24 %
4 baho – 13 ta - 43 %	4 baho – 12 ta - 36 %
3 baho – 8 ta - 24 %	3 baho – 8 ta - 24 %
2 baho – 1 ta - 3 %	2 baho – 2 ta - 6 %

Odobnoma darslarini yangi pedagogik texnologiyalar, ayniqsa, o`yin tarzida tashkil etish orqali o`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari yuqoridagi shkalada ko`rsatilgan natijalarni qayd etdi.

Tajriba sinfida yomon bahoga o`qiydigan o`quvchilar tajribadan oldin 2 nafarni tashkil etgan bo`lsa, tajribadan so`ng ushbu sinfda yomon bahoga o`qiydigan

o`quvchilarning 1 nafari o`rta bahoga 1 nafari yomon bahoga o`zlashtira boshladilar. Nazorat sinfida esa yomon bahoga o`qiydigan o`quvchilar 2 nafarligicha qoldi. Avval ular 2 nafarni tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng yana 2 nafarni tashkil qildi.

O`rta bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 2A -sinfda 10 nafar edi. Tajribadan so`ng 2 nafarga kamayib, 8 nafarni tashkil qildi. Ushbu sinfda o`rta va qoniqarsiz bahoga o`qiydigan o`quvchilar 12 nafarni tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng ular 9 nafarni tashkil qildi. Bu 25% o`quvchilar yaxshi bahoga o`zlashtirganliklarini bildiradi. 2B -sinfda esa tajribadan oldin 10 nafar o`quvchi o`rta bahoga o`qishgan bo`lsa, tajribadan so`ng ular 8 nafarni tashkil qildi.

Yaxshi bahoga o`qiydigan o`quvchilar avval 2A -sinfda 14 nafarni tashkil qilgan edi. Tajribadan so`ng ular 14 nafarni tashkil qildilar. Ushbu sinfda 6 nafar o`quvchi o`rta bahodan yaxshi bahoga o`zlashtirganliklarini etiborga olsak, jami 7 nafar o`quvchi a`lo bahoga o`qiy boshlagan bo`ladilar. O`z-o`zidan ushbu sinfda a`lo bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 10 nafardan 15 nafarga oshadi. Nazorat sinfida esa tajribadan oldin yaxshi bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 8 tani tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng yaxshi bahoga 10 nafar, a`lo bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 7 nafarga oshadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiyluk bilan kurasha olishi mumkin.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning Odobnoma darslarida odob-axloq haqidagi tushunchalarini o'stirish boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'qitish jarayoniga katta mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi. Chunki endigina o'z ona tilisining grammatik qonun qoidalarini o'rganayotgan, harflarni bir-biriga qo'shib, so'zlarni esa bir-biriga qo'shib gap yasashga o'rganayotgan, matnni ifodali o'qish qoidalari bilan tanishayotgan, har bir raqamlarni bir-biriga qo'shish orqali ma'lum sonlarni chiqarish boshlang'ich sinf o'quvchisiga bir vaqtning o'zida ta'lim va tarbiya berish, ularga sharqona odob-axloq, iymon-e'tiqod, unsoniy fazilatlar haqidagi tushunchalarni singdirish bir muncha murakkablikni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, saviyasi va bilimni qabul qila olish qobiliyatlarini hisobga olgan holda dars mashg'ulotlarini tashkil qilish, o'qitish printsiplari va metodlariga qat'iy amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Biz tajriba-sinov mashg'ulotlarini olib borish jarayonida shunga amin bo'ldikki, darslarda noan'anaviy metodlarni qo'llash, yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, dars qismlarida sport o'yinlaridan, turli xil musobaqalardan yoki qiziqarli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarda, nafaqat, chuqur bilim va ko'nikmalarini oshirishda, balki, odob-axloq haqidagi tushunchalarni o'stirishda samarali natijalar beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqarli o'yinlarni o'ynashga bo'lgan qiziqishlaridan unumli foydalanib, dars jarayonlarida, ayniqsa, "Odobnoma" darslarida matn mazmuni bilan tanishish, uni ifodali o'qish, qolaversa, uy vazifalarini tekshirishda ko'proq qiziqarli o'yinlardan foydalandik.

## **Tavsiya**

Quyida keltirilgan xulosalardan kelib chiqqan xolda quyidagi tavsiyalarni bermoqchimiz:

1. “Odobnoma” darslarida noan'anaviy usullardan, qiziqarli o'yinlardan foydalanish;
2. O'quvchilarning, avvalo, darsga bo'lgan qiziqishlari ijobiy tomongan o'zgarish;
3. “Odobnoma” darsiga qiziqmagan o'quvchilarda darsga qiziqish uyg'ota olish;
4. Eng asosiysi, tuli xil qobiliyatlari rivojlantirishga, bilim va ko'nikmalarni tez o'zlashtirib olishlariga o'rgatish usullarini ishlab chiqish;
5. “Odobnoma” darsi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'analalarimiz, sharqona odob-axloq haqidagi tushunchalarini rivojlantirishga erishish;

Bundan tashqari, “Odobnoma” darlarida qiziqarli o'yinlar o'tkazish, sinf o'quvchilarini kichik guruhlariga bo'lib ishlash kabi usullardan foydalanish, o'quvchilarning mashg'ulot davomida erkin harakat qila olishga, o'zlarida his etayotgan tortinchoqlik, uyatchanlik, biladigan narsasini aytib berishga jur'at eta olmaslik kabi salbiy xarakterlaridan qutulishga, erkin fikrlash, mustaqil ravishda xulosa chiqarish, fikr-mulohazalarini va xulosalarini erkin bayon eta olish, mehnatsevarlik, kamtarlik, rostgo'ylik, hushmuomalalik, va mehmon kutish kabi qobiliyatlarini shakllantirishga va uni rivojlantirishga erishish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I Ijtimoiy-siyosiy:

1. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarmiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi,” Xalq so’zi, Toshkent, 2011-yil, 22-yanvar 16-son, 8 b
2. Karimov I.A. “O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so’zi” “O’zbekiston ovozi”., 2010-yil.,1-sentabr, 105-son., 8 b
3. Karimov I.A. “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – usuvor maqsadimizdir” “Ishonch”, 2010-yil, 8-dekabr. 8 b
4. Karimov I.A.“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” “Ma’naviyat”, Toshkent. 2008 -yil. 176 b
5. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. “Sharq” Toshkent. 1999- yil. 184 b
6. Karimov I.A. “Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori”. “O’zbekiston” Toshkent. 1998-yil. 176 b
7. Karimov I.A. “Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi”. 5-tom “O’zbekiston” Toshkent. 1997- yil. 184 b
8. Karimov I.A. “Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi”. T. 1997-yil. 5- jild.
9. Karimov I.A.“Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. 2-tom “O’zbekiston” Toshkent. 1996- yil. 186 b
- 10.Karimov I.A. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”. 3-tom “O’zbekiston” Toshkent. 1996- yil. 172 b
- 11.Karimov I.A.“Bunyodkorlik yo’lidan”4-tom “O’zbekiston”Toshkent. 1996- yil.

### II Ilmiy-uslubiy:

1. Boshlang’ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta’lim standarti. Boshlang’ich ta’lim . 2006-yil, 5- son .
2. Boshlang’ich ta’limning takomillashtirilgan o’quv dasturi. Boshlang’ich ta’lim . 2006-yil, 5- son
3. O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», T., 1998

4. Abdullayeva Q. "Odobnoma" 2-sinf uchun darslik. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent. 2010- yil. 80 b
5. Abduqudusov O.A. v.b. "Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari" Toshkent, 2011-yil. 194 b
6. Abdullayeva Q. va boshqalar. "O'qish kitobi" 2-sinf uchun darslik. "O'qituvchi" Toshkent. 2008- yil.176 b
7. Abdullaeva K. va b. Ona tili . "O'qituvchi". Toshkent. .1999.-yil.146 b
8. Ushinskiy A"Ona tilini dastlabki o'qitish " Boshlang'ich ta'lim 2002-yil 5-son
9. Ikromova R. v.b. Ona tili . 4- sinf uchun "O'qituvchi" Toshkent. 2007-yil
- 10.Mirzayev M. O'qish kitobi 4-sinf uchun darslik. "Cho'lpon" T. 2008-yil.186 b
- 11.Sayidahmedov N. «Yangi pedagogik texnologiya» Toshkent. 2003-yil. 112 b
- 12.Hasanboyeva O. va b. "Odobnoma" 3-sinf uchun darslik. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent. 2010- yil. 112 b
- 13.Hasanboyeva O. va b. "Odobnoma" 3-sinf uchun darslik. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Toshkent. 2019- yil. 96 b

### **III Internet materiallari:**

1. <http://www.google.co.uz/>
2. <http://www.referat.uz/>
3. <http://www.ziyonet.uz/>

## MUNDARIJA

Kirish .....	2-7
I bob. Boshlang'ich sinflarda odobnoma darslarini tashkil etishning pedagogik psixologik asoslari .....	8
1.1 O'zbek xalqining mehmon kutish odobiga oid o'ziga xos xususiyatlari.....	8-18
1.2. Odobnoma darslariga qo'yilgan DTS talablari .....	19-28
1.3 Odobnoma darslarida qo'llanadigan yangi pedagogik texnologiyalar tavsifi.....	29-40
II bob. 2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug'” bo'limini o'rganish.....	41
2.1. 2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug'” bo'limini o'rganish uslublari.....	41-50
2.2. 2-sinf odobnoma darslarida “Mehmon otangday ulug'” bo'limini o'rganishda noan'anaviy dars usullaridan foydalanish.....	51-60
2.3.Tajriba – sinov ishlari .....	61-65
Xulosa va tavsiyalar .....	66-67
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	68-69
Mundarija .....	70